

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA-MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI
O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI
O'ZBEK FILOLOGIYASI FAKULTETI**

NURULLAYEVA GULSHAN SUNNATULLAYEVNA

**BITIRUV MALAKAVIY
ISHI**

"Fununu-l-balog'a" asarida badiiy san'atlar.

Ilmiy rahbar:
dot. I. Adizova.

MUNDARIJA

I. Kirish.....	3
II. Asosiy qism:	
1-bob. Shayx Ahmad Taroziy risolasidagi “Al-fann-us-solis fis-sanoe’-ish-she’r”ning tarkibi.....	8
1.1 “Funun ul-balogs‘a”da lafziy san’atlarning o‘rnii va talqini.....	8
1.2 Asarda ma’naviy san’atlar tadqiqi.....	23
2-bob. “Funun ul-balogs‘a”dagi ilmi bade’ bobining o‘ziga xos xususiyatlari.....	35
2.1 Risolaning shu yo‘nalishdagi asarlar bilan muqoyasasi.....	35
2.2 Zamonaviy she’rshunoslikda uchramaydigan badiiy san’atlar tasnifi.....	61
Xulosa.....	73
Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.....	77
Illova.....	79

. KIRISH.

Mavzuning dolzarblii. Sharq olamida azaldan adabiyot – so‘z san’atiga alohida nazar bilan qaralgan. Adabiyot asrlar davomida uch tarkibiy qismga ajratilib, ularning har biri mustaqil fan sifatida chuqur tadqiq etilgan. Ular quyidagilar: ilmi aruz, ilmi bade’ va ilmi qofiya. Fors ulamolari bu uchlikni “Ilmhoye segona” (Ilmlar uchligi) deb atashgan. Mumtoz poetikamiz tarixida bu sohalarning har qaysisiga bag‘ishlanib, o‘nlab ilmiy risolalar yaratilgan. She’riyat ilmi doimo e’tiborda bo‘lib, nazmga nasrga qaraganda farqliroq hurmat ila qaralgan. Hazrat Navoiy ham nazm (tizma)ning nasr (sochma)dan afzalligi va go‘zalligini “Hayrat ul-abror” dostonida alohida ta’kidlaydilar. Maktab-madrasalarda ham she’r ilmi mustaqil fan tarzida o‘qitilgan.

Ilmi bade’ – badiiy san’atlar ham adabiyotning muhim tarmoqlaridan hisoblanib, butun Sharq dunyosi ulamolari tomonidan birgina shu sohaga atalib bir necha nodir risolalar bitilgan. Bu haqdagi eng qimmatli asarlar sirasiga quyidagilarni kiritish mumkin: Abdulloh ibn Mu’tazzning “Kitobu-i-badi”, Nasr binni Hasanning “Mahosinu-l-kalom” (“Go‘zal so‘zlar”), Qudama ibn Ja’farning “Naqdu-sh-she’r” (“She’r tanqidi”), Umar Rodiyoning “Tarjumonu-l-balogs” (“Balog‘at tarjimoni”), Rashididdin Vatvot “Hadoyiqu-s-sehr” (“Sehrli bog‘lar”), Atoulloh Husayniyning “Badoe’u-s-sanoe” (“San’at yangiliklari”) risolalari.

Badiiy san’atlar mumtoz adabiyot va mumtoz she’riyatning asosi hisoblanadi. Ular nazmiy asarlarning tub mag‘zini yoritib beruvchi, she’rni go‘zallashtiruvchi, unga chiroqli ma’no beruvchi va she’rni she’r qiluvchi muhim vositalardir. She’riy san’atlar she’rning faqat shakliy bezagi yoki unga kutilmagan ma’nolar yuklovchi vazifasini bajarmaydi. Balki, ularning misra-yu baytlarda kelishi shoir aytmoqchi bo’lgan ma’noni o’quvchiga yetkazishga ko’maklashuvchi va muallif yuragidan o’tkazgan tuyg‘ularni o‘zgalar ham his qilishiga yordamlashuvchi “kalit so‘zlar”dir.

She’riy tasvir vositalari yaqin o‘tmishda paydo bo‘lgan emas. Ularning yaratilishi “Avesto” va O‘rxun-Enasoy manbalari davrlariga va undan ham ilgarigi paytlarga borib taqaladi. Qadim davr xalq og‘zaki ijodi namunalari ham buni isbot etadi. “Devoni lug‘otit-turk”da keltirilgan she’riy parchalarda ham she’riy san’atlar uchqunlari ko’rinadi.

Turkiy she ‘rshunoslik sohasida Shayx Ahmad Taroziyning “Funun ul-balogs‘a” risolasi muhim ahamiyatga ega bo‘lib, u o‘zbek tilida yaratilgan ilk nazariy manbadir. Shayx Ahmad Taroziyning “Funun ul-balogs‘a” risolasi adabiyotimiz tarixida muhim ahamiyatga ega. Turkiy mumtoz she’rshunoslik, umuman, adabiyotshunoslikni o‘rganish borasida bu asar eng avvalgisi va eng asosiysi sanaladi. Adabiyotning har uchala tarkibiy qismlari (ilmi bade’, ilmi aruz, ilmi qofiya) haqida Taroziy asari keng ma’lumot beradi. Ayniqsa, uning ilmi bade’ga bag‘ishlangan qismi mumtoz adabiyotimiz nazariyasi uchun bosh manbadir. To‘g‘ri, “Funun ul-balogs‘a”dan oldin ham bu soha bo‘yicha o‘nlab risolalar yaratilgan edi, biroq ularning barchasi yo arabiylari, yo forsiy tillarda edi. Taroziy risolasi esa shu tipdagi risolalarning turkiydagi dastlabkisi bo‘ldi va o‘zidan keyin o‘zbek tilida yaratilgan adabiyotshunoslikka oid har qanday ilmiy asar uchun asos vazifasini o‘tadi. Asar shu yo‘nalishda bitilgan arabiylari forsiy risolalarning shunchaki tarjimasi emas. Unda sof turkiy she’riyat nazariyasiga doir ilmiy xulosalar ham salmoqli. Shunga qaramay, hali adabiyotshunosligimiz tarixida “Funun ul-balogs‘a” deyarli o‘rganilmagan. Ba’zi olimlarimiz yo‘l-yo‘lakay ma’lumot o‘rnida bir necha maqolalar e’lon qilishgan xolos. Asarni to‘laligicha ilmiy tadqiq etish endigi vazifalardandir. Mazkur bitiruv malakaviy ishimiz shu jihatni bilan dolzarbdir.

“Funun ul-balogs‘a” asari mumtoz poetikamizdagি ba’zi muammoli masalalarga ham oydinlik kiritishi nuqtayi nazaridan qimmatlidir. Xususan, asarning biz o‘rgangan ilmi bade’ga atalgan qismida bu kabi o‘rinlar ko‘plab topiladi.

Mavzuning o‘rganilganlik darajasi. “Funun ul-baloga” asari hali tugal o‘rganilgan emas. Ushbu kitob fotonusxasi 1993-yili filologiya fanlari doktori Ergash Umarov tomonidan Alisher Navoiy nomidagi Adabiyot instituti kutubxonasiga taqdim etilgan. Asarning ilm ahliga e’lon qilinishida O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi, filologiya fanlari doktori, professor Abduqodir Hayitmetovning hissasi katta. Olim risola haqidagi ilk ilmiy axborotni “Fan va turmush” jurnalining 1994-yil 1-sonida “Taroziy qomusi” nomi bilan bergan edi. Shu yili “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” gazetasining 18-mart sonida bu haqdagi ma’lumot “Shayx Ahmad Taroziy: “Funun ul-baloga” nomi bilan bosilib chiqadi. Asarning 1996-yildagi yagona tabdil qilingan nashri ham A. Hayitmetov boshchiligida amalga oshirilgan. Bundan tashqari, A. Hayitmetov “Adabiy merosimiz ufqlari”¹ kitobida ham bu haqda ma’lumot bergan. Bu asarning xorijda ham qiziquvchilari bo‘lib, AQSHdagi Indiana universiteti professori, sharqshunos olim Devin DeVis 2005-yilda asar tahliliga bag‘ishlangan “Navoiyning salaflari Shayx Ahmad ibn Xudoydod Taroziyning asarida: XV asrdan buyon Markaziy Osiyo madaniyatshunoslida unutilgan manba” nomli maqola e’lon qilgan. Adabiyotshunos olim, professor H. Boltaboyev “Sharq mumtoz poetikasi” kitobining Adabiy turlar. She’r navlari; She’r tuzilishi. Aruz ilmi; Badiiy san’atlar; Qofiya ilmi nomli boblarida “Funun ul-baloga”dan ko‘plab ilmiy ma’lumotlar bergan. Adabiyotshunos I. Adizova “Uvaysiy ijodida janrlar takomili” risolasida “Funun ul-baloga”dan ba’zi ma’lumotlar keltiradi. 2012-yilda Jalolbek Yo‘ldoshbekov asar haqida “Funun ul-baloga” asarida mumtoz poetika muammolarining ishlanishi” nomli dissertatsiya yozgan, biroq hali himoya qilinmagani bois ilm ahliga taqdim etilmagan. Adabiyotshunoslilik nuqtayi nazaridan Taroziy risolasi batamom o‘rganilgan emas.

Bitiruv malakaviy ishining obyekti: “Funun ul-baloga”ning yagona nashri. Kitob Toshkentda 1996-yil “Xazina” nashriyotida chop etilgan. Bitiruv malakaviy ishimizda manba sifatida mazkur nashrdan foydalandik.

¹ Hayetmetov A. Adabiy merosimiz ufqlari. – Toshkent: O‘qituvchi, 1997.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadlari:

- “Funun ul-balogs‘a”ning she’riy san’atlarga bag‘ishlangan “Al-fann-us-solis fis-sanoe’-ish-she’r” qismini to‘la o‘rganish;
- asarni Taroziyga zamondosh va bugungi adabiyotshunoslikka doir asarlar bilan ilmiy qiyoslash;
- “Al-fann-us-solis fis-sanoe’-ish-she’r”ni chuqur tadqiq etish bilan adabiyot nazariyamizning badiiy san’atlar sohasini boyitish;
- “Funun ul-balogs‘a”ni qiyosiy metoddasi o‘rganish asnosida undagi ilmiy yangiliklarni ilm ahliga havola qilish.

Bitiruv malakaviy ishining vazifalari:

- “Al-fann-us-solis fis-sanoe’-ish-she’r”dagi badiiy tasvir vositalarini shartli ravishda lafziy va ma’naviy guruhlarga ajratish;
- risoladagi she’riy san’atlarning soni, ularning mohiyati va turlari haqidagi munozarali masalalarga oydinlik kiritish;
- “Funun ul-balogs‘a”da uchrovchi zamonaviy she’rshunoslik uchun yangi bo‘lgan badiiy san’atlarni aniqlash;
- asarni Atoulloh Husayniyning “Badoe’u-s-sanoe”” risolasi bilan qiyosiy tadqiq etish orqali undagi sof turkona she’riy san’atlarni topish va ular to‘g‘risida ma’lumot berish.

Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi. Tadqiqot Kirish, 2 bob, 4 faslni qamragan va xulosa, adabiyotlar ro‘yxati, ilovadan iborat.

II. ASOSIY QISM:

1. “Funun ul-balogs‘a”ning tarkibi.

1.1 Taroziy asarida lafziy san’atlarning o‘rni va talqini.

Badiiy san’atlar mumtoz adabiyot va mumtoz she’riyatning asosi hisoblanadi. Ular nazmiy asarlarning tub mag‘zini yoritib beruvchi, she’rni go‘zallashtiruvchi, unga chiroyli ma’no beruvchi va she’rni she’r qiluvchi muhim vositalardir. She’riy san’atlar she’rning faqat shakliy bezagi yoki unga kutilmagan ma’nolar yuklovchi vazifasini bajarmaydi. Balki, ularning misra-yu baytlarda kelishi shoir aytmoqchi bo’lgan ma’noni o’quvchiga yetkazishga ko’maklashuvchi va muallif yuragidan o’tkazgan tuyg‘ularni o‘zgalar ham his qilishiga yordamlashuvchi “kalit so‘zlar”dir. She’riy tasvir vositalari yaqin o’tmishda paydo bo‘lgan emas. Ularning yaratilishi “Avesto” va O‘rxun-Enasoy manbalari davrlariga va undan ham ilgarigi paytlarga borib taqaladi. Qadim davr xalq og‘zaki ijodi namunalari ham buni isbot etadi. “Devoni lug‘otit-turk”da keltirilgan she’riy parchalarda ham she’riy san’atlar uchqinlari ko’rinadi.

“Badiiy san’atlar haqidagi dastlabki ilmiy risolalar johiliya davrida yoki ilk islom xalifalari zamonida shakllanganiga qaramay, bu san’atlar xalq zakovati badiiy balog‘atining belgisi sifatida qadimdan mavjud bo‘lgan”.²

She’riyat nazariyasiga oid ilmiy asarlar avval arablarda, keyin forslarda va undan keyin turkiy xalqlarda yaratilgan. Bu jarayonda o’zaro ta’sirlanish, albatta, bo‘lgan. Dastlabki yaratilgan risolalarda yagona an’ana mavjud bo‘lgan: poetikaga doir kitoblarda badiiy san’atlarning yuksak namunalari Qur’oni karim va Hadisi sharifdan keltirilgan. Jumladan, arab mumtoz poetikasining poydevori hisoblangan Abdulloh ibn Mu’tazzning “Kitobu-i-badi”³ risolasida Qur’on “kitoblarining onasi” deya atalib, misollar shu muqaddas kitobdan keltiriladi. Keyingi davrlarda yaratilgan Nasr binni Hasanning “Mahosinu-l-kalom” (“Go‘zal so‘zlar”), Qudama

² Boltaboyev H. Sharq mumtoz poetikasi. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008. – B. 220

ibn Ja'farning "Naqdu-sh-she'r" ("She'r tanqidi") asarlarida ham shu jihat ustuvor hisoblangan.

Bu yo'nalishdagi forsiyda bitilgan risolalarning ibtidosi Umar Rodiyoniyning "Tarjumonu-l-balog'a" ("Balog'at tarjimoni") asari sanaladi. Rashididdin Vatvotning "Hadoyiqu-s-sehr" ("Sehrli bog'lar"), Atoulloh Husayniyning "Badoe'u-s-sanoe'" ("San'at yangiliklari") risolalari shu asarning mantiqiy davomchilari hisoblanadi. Shu mazvuga oid ilk turkiy risola Shayx Ahmad Taroziyning "Funun ul-balog'a" asari hisoblanadi. Bu asar turkiy tildagi poetikaga oid XV asrning nodir namunasidir. Taroziy o'zigacha bo'lgan davrdagi "ilmi bade"'ga taaluqli asarlarning tajribalarini imkon qadar umumlashtirishga, adabiy mavzu, janr, badiiy san'atlar haqidagi ilmiy xulosalarini kengaytirib borishga intilgan. Risola 1436-1437 yillarda (hijriy 840) yozilgan. Uning topilishi va ilm ahliga e'lon qilinishida O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi, filologiya fanlari doktori , professor Abduqodir Hayitmetovning hissasi katta. Olim risola haqidagi ilk ilmiy axborotni "Fan va turmush" jurnalining 1994-yil 1-sonida "Taroziy qomusi" nomi bilan bergen edi. Shu yilning 18-mart sonida "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasida bu haqdagi ma'lumot "Shayx Ahmad Taroziy: "Funun ul-balog'a" nomi bilan bosilib chiqadi. Asarning 1994-yildagi yagona tabdil qilingan nashri ham A.Hayitmetov boshchiligidagi amalga oshirilgan.

"Funun ul-balog'a"ni zamondoshlari "Latoyifi Tavoyif" deb ham atashgan ekan. Asar o'z davridagi adabiy hayot ehtiyoji va talablari asosida yuzaga kelgan. Boisi unga qadar turkiy tilda qalam tebratuvchilar uchun tayanish mumkin bo'lgan biror ilmiy-nazariy manba yo'q edi. Vaholanki, 15-asrda turkiy tilda ash'or bitadigan, ijod qiladigan qalamkashlar soni toboro ko'payib borayotgan edi. Shu ma'noda Taroziyning bu asari o'zbek xalqining ma'naviy va madaniy taraqqiyoti bilan chambarchas bog'langan edi, deyish mumkin.

Ushbu kitob fotonusxasi 1993-yili filologiya fanlari doktori Ergash Umarov tomonidan Alisher Navoiy nomidagi Adabiyot instituti kutubxonasiga taqdim

etilgan. “Hijriy 840 — milodiy 1436-37 yillarda yaratilgan “Funun ul-balogs‘a”ning bizgacha etib kelgan ayni nusxasi asar yozilganidan 144 yil keyin Buxoroda Mir Kulanki al-Hoji degan kotib tomonidan ko‘chirilgan. 1581-yili Taroziyining “Funun ul-balogs‘a”sini ko‘chirgan “Mir Kulanki al-Xoji” nomi bilan mashhur kotibning Mir Husayn Husayniy ismi ham mavjud”³. “Ushbu qo‘lyozmaning asli 139 varaqdan iborat bo‘lib, Buyuk Britaniyaning Oksford shahri “Bodean kutubxonasida 0 0792 145 tartib raqami ostida saqlanadi”⁴.

Taroziy o‘z davri adabiy muhitidagi kamchiliklarni anglagan holatda shunday deydi: «...Ammo ko‘p kishi bu tariqada necha ta’lif qilibturlar va lekin hech kimarsa nazmning tamom fununin berarda jam’ qilmaytur. Va yana bu sababdin rag‘bat havasi g‘olib bo‘lib, havas dilbarini ko‘ngul pardasindin bu tariqa yuz ko‘rguzdikim, nusxa qalamg‘a keltursakim, nasr va nazmning jam’ qavoyid va aqsomig‘a mushtamil bo‘lsa, to har kim balog‘atqa moyil va fasohatqa qobil erur, foyda olsa”⁵.

“Funun ul-balogs‘a” asari an’anaviy Allohga hamd va payg‘ambarga na’t qismlari bilan boshlanadi. Undan keyin asarning yozilish sabablariga o‘tiladi. Muqaddima ham ancha pishiq ishlangan. Unda arabiy, forsiy she’riy parchalar uchraydi. Muallif kirish qismida asarni temuriyzoda Mirzo Ulug‘bekka bag‘ishlaniga ishora qilib, bir qasida keltiradi va: “Kimki malolat gardining ilki oning xotiri etokining gardiga dast topmas, alalxususkim, debochayi sharifasi podshohining humoyun alqobi birla muzayyandurkim, ul sultanat daryosining gavhari va ma’dalat konining javhari, saxovat bordonining abri va shijoat beshasining babri, farosat sipehrining mohi, kayosat mamlakatining shohi, shahanshohi a’зам, shahriyor-i a’lam, sohib us-sayf va-l-qalam, ma’dan-i lutfu

³ Hayetmetov A. Adabiy merosimiz ufqlari. – Toshkent: O‘qituvchi, 1997. – B. 10

⁴ Hayetmetov A. Adabiy merosimiz ufqlari. – Toshkent: O‘qituvchi, 1997. – B. 8

⁵ Shayx Ahmad ibn Xudoydod Taroziy. Funun ul-balogs‘a. – Toshkent: Xazina, 1996. – B. 31 Keyingi o‘rinlarda mazkur asardan olinadigan parchalarning sahifasi ko‘rsatiladi.

karam, moliki riqob-i umam, farmondehi turku arabu ajam, mag‘isiddin vad-davron amir Ulug‘bek Ko‘ragon”⁶, deydi.

Risola muqaddimadan tashqari she’r qismlari, qofiya va radif, she’riy san’atlar, vazn, muammo ilmiga bag‘ishlangan besh qismidan iborat. Bu qismlar “fann” deyilib, sarlavhalari arab tilida berilgan: “Al-fann ul-avval fi aqsom ush-she’r”; “Al-fann us-soniy fi-l-qofiya va radif”; “Al-fann us-salis fi-sanoe’ ush-she’r”; “Al-fann ur-robe’ fi-avzon ush-she’r”. Asarning muammoga bag‘ishlangan beshinchi qismi bizgacha yetib kelmagan.

Risolada tilga olingan har bir badiiy hodisaga moslab misollar keltirilgan. Ular arab, fors va turkiy tillardagi nasr yoki nazmiy asarlardan olingan. “Asarda jami 91 manbadan misollar keltirilgan bo‘lsa, shulardan 84 tasi shoirlarning she’rlari bo‘lib, qolgan qismi Qur’oni Karim, Hadisi sharifdan olingan. Shuningdek, “arab donishmandlari” va “fors oqillari”ning nasriy hamda “arab fasehlari” va “ajam donolari”ning na3miy asarlaridan ham keltirilgan. Ayni vaqtda, muallifi ko‘rsatilmagan she’riy parchalardan ham misol sifatida foydalanilgan”⁷.

“Al-fann-us-solis fis sanoe’-ish-she’r”ning kirish qismida 97 san’at turi sanab o‘tiladi. Ular quyidagilar: tarse’, tarse’ maat-tajnis, tajnisi tom, tajnis-uz-zoyid, tajnis-ul-noqis, tajnis-ul-murakkab, tajnis-ul-mukarrar, tajnis-ul-mutarraf, tajnis-ul-xat, tas’hif, tashbehi mutlaq, tashbeh-ul-mashrut, tashbeh-ul-kinoyat, tashbeh-ul-tasviyat, tashbeh-ul-aks, tashbeh-ul-izmor, tashbeh-ul-tafzil, tafsir-ul-jalo, tafsir-ul-xafo, tazmin, tazmin-ul-muzdavaj, tansiq-us sifot, ta’kid-ul madh bimo yushbihuzzam, tarjima, taajub, tajohil-ul-orif, xayol, ihom va ihom-ut-tom, ashkol, e’not, ibdo’, irsol-ul-masal, irsol-ul-masalayn, ig‘roq fis-sifat, ishtiqoq, iltifot, intiboh, iqtibos, istifhom, istidlol, istidrok, istiora, maqlub-ul-ba’z, maqlub-ul-kull, maqlub-ul-mujannax, maqlub-ul-mustaviy, mutazod, muroot-un-nazir, mutanosib, mutadorifi matlun, musalsal, mutazalzal, muxtamiluz-zid-dayn, muvajjah, mukarrar, maleh, mukarrar-qabih, maqta’, mavsil, mushajjar, murabba’,

⁶ O’sha asar, 31-bet.

⁷ Yo‘ldoshbekov J. “Funun ul-balogs” asarida mumtoz poetika muommolarining ishlanishi. Toshkent: 2012. – B. 21

mulamma', mujarrad, muvashshah, muammo, mag'lata, lug'z, raqto, xayfo, baroati istehlol, radd-ul-matla', radd-ul-fajr, alas-sadr, lafu nashri murattab, lafu nashri mushavvash, radd-ul-aks, hashv-ul-maleh, hashv-ul-qabih, hashv-ul-mutavassit, saj'-ul-muvozana, saj'-ul-matavoriy, saj'-ul-matarraf, sehri hilol, siyoq-ul-e'dod, savol-u javob, jam'-ul-mufrad, tashbeh-ul-mufrad, tariq-ul-mufrad, jam'-un ma at-tafriq vat-taqsim, kalom-ul mujome', husn-ul-matla', xusn-ul-taxallus, husn-ut-ta'lil, husnut-talab, husn-ul-maqta, at-tarzeh.

Shundan keyin san'atlar izohiga o'tishdan oldin muallif o'z ijodidan bir bayt keltiradi:

"Ey xidmating falakka erur farzi mustadom:

Ey toating malakka erur subh-u shom"⁸.

So'ng yuqorida sanalgan badiiy san'atlar birin-ketin izohlana boshlaydi. Bunda muallif arab alifbosi tartibiga rioya qiladi. Bob mundarijasida 97 san`at turi sanaladi, izohda esa 94 ta. Tushirib qoldirilganlari 3 san`atgina bo`lib qolmay, mundarija va izohda yana bir necha nomutanosibliklar ko`rinadi: tafsir ul-jalo, tafsir ul-xafo, at-tarzeh san`atlari bob avvalida aytilib, bob ichida umuman tilga olinmaydi. Sahli mumtane, nomutanohiy kabilar esa bob ichida ko`rsatiladi-yu, avvalida tilga olinmaydi.

Ahmad Taroziy badiiy sana'atlarni lafziy, ma'naviy turlarga ajratmaydi. 90 dan ortiq tasvir vositalari alifbo tarzida izohlanaveradi. Biz yuqoridagi 94 san'at turini shartli ravishda lafziy va ma'naviy guruhlarga ajratishga harakat qildik. Agar biz ba'zi she'riy san'atlarning ichki turlarini hisobga olmasak, risolada 64 badiiy san'at turi borligi ayon bo'ladi. Shundan 25 tasi lafziy va 39 tasi ma'naviy san'atlardir. Quyida ularning nomlari keltiriladi:

I. Lafziy san'atlar: tarse', at-tajnisot, at-tarse'u maat-tajnis, at-tas'hif, al-e'not, al-ishtiqoq, al-maqlubot, al-mutalavvin, al-mutasalsal, al-mutazalzil, al-

⁸ Shayx Ahmad ibn Xudoydod Taroziy. Funun ul-balogs'a. – Toshkent: Xazina, 1996. – B. 31

mukarrar, al-mukarrari qabih, al-muvassal, al-muqatta', al-mushajjar, al-murabba', al-mulamma', al-mujarrad, al-muvashshah, ar-raqto, ar-radd-ul-matla', radd-ul-ajz alas sadr, al-radd v-al-aks, al-hashviyot, al-ishjo', as-sehr-ul-hilol.

II. Ma'naviy san'atlar: at-tashbehot, al-ihom- ut-tom, al-ishkol, al-ibdo, al-irsoul masal, al-irsoul-masalayn, al-ig'roq fis san'at, al-iltifot, al-intiboh, al-iqtibos, al-istifhom, al-istidlol, al-istidrok, al-istiora, al-muammo, al-mutazod, al-murootun-nazir, al-mutanosib, al-mutarodif, al-muhtamilu li-ziddayn, al-muvajjih, al-mug'olata, al-lug'z, al-baroati istihlol, al-laff v-an-nashr, mushavvash, as-syoq-ul-e'dod, as-savol-ul-javob, al-jam'-ul-mufrad, at-ta'rif-ul-mufrad, at-taqsim-ul-mufrad, al-jam'maat-tafriq, al-jam'-ul-maat-taqsim, al-jam' maat-tafriq at-taqsim, al-kalom-ul-jome' al-husn-ul-matla', al-husn-ul-taxallus, al-husn-ut-ta'lil, al-husn-ul-talab, al-husn-ul-maqta.

LAFZIY BADIY SAN'ARLAR. “Funun ul-balogs” risolasida lafziy san'atlar har biri mustaqil holatda 25 tani tashkil qiladi. Biroq ularning aksariyati ichki turlariga ham egaki, barchasi hisobga olinsa, jami 53 san'at turini tashkil etadi. Ichki guruhlarga ega lafziy san'atlar: ular 6 ta – at-tajnisot, al-maqlubot, radd-ul-ajz alas sadr, al-hashviyot, al-ishjo, as-sehr-ul-hilol. Bularda ham farqlilik mavjud bo'lib, 4 san'atning turlari alohida nomlangan va 2 san'at turlari nomlanmagan:

1. At-tajnisot 7 turga ega: tajnisi tom, al-tajnisuz-zoyid, al-tajnis-un-noqis, al-tajnis-ul-murakkab, al-tajnis-ul-mukarrar, al-tajnis-ul-mutarraf, al-tajnis-ul-xat.
2. Al-maqlubot 4 turga ega: al-maqlubul-ba'z, al-maqlubul-kull, al-maqlubul-mujannah, al-maqlubi mustaviy.
3. Radd-ul-ajz alas sadr 6 turli. Biroq ularning har biriga nom berilmagan, turlar “avvalg'i nav'i”, “ikkinchi nav'i” tarzida izohlanadi.
4. Al-hashviyot 3 turga ega: al-hashvul-malih, al-hashvul-qabih, al-hashvul-mutavassit.

5. Al-ishjo 3 turga ega: saj'-ul-muvuzana, al-saj'-ul-mutavoziy, al-saj'a-ut-tarafa.

6. As-sehr-ul-hilol 2 turga ega bo'lib, turlar nomlanmagan.

Quyida risoladagi ba'zi lafziy san'atlar va ularning izohi bilan tanishtirishga harakat qilamiz:

AT-TARSE'U MAAT-TAJNIS san'ati. Muallif izohi: “Bu san'at aningtek bo'lurkim, baytni tamom ham tarse' qilurlar, ham tajnis. Misol Ganjaviy aytur:

“Tiri harxat zi mehr diyda sipor,

Tiri jarjat zi mehr diyda sipor”⁹.

Tarse' har necha o'z nafsi bila baland poya turur, agar yana o'zga san'at anga qarin bo'lsa, hanuz purmoyaroq bo'lur. Misol Rashid aytur:

“Bemoram u kori zori tu darmoni,

Bemoram u kori zori tu dar moni”¹⁰.

Bu san'at “Fehrest”ta tajnislardin muqaddam kelubdur. Faammo bir maslahatdin tajnisni taqdim qilduq”¹¹. Atulloh Husayniy risolasida bu san'at tarse'ning 2-turi sifatida tajnishi tarse' tarzida berilgan. Taroziy esa uni tarse'dan ham, tajnisdan ham ajratgan holatda alohida san'at turi maqomida izohlaydi. Lekin keltirilgan uch she'riy misol ham forsiyda.

AL-MAQLUBOT san'ati. Muallif izohi: “Bu san'at ul bo'lurkim, so'znung harflarini qalb qilurlar. Lug'atda “qalb” bo sukuna qilmoqni ayturlar. Va istilohda she'rning hurufin bo sukuna qilmoqni ayturlar. Bu to'rt nav' bo'lur: maqlubi ba'z, maqlubi kull, maqlubi mujannah, maqlubi mustaviy”¹². Bu san'at boshqa risolalarda qalb deb nomlanadi. Qalbning lug'aviy ma'nosi esa “teskari qilmoq”

⁹ O'sha asar, 92-bet.

¹⁰ O'sha asar, 93-bet.

¹¹ O'sha asar, 92-93 bet.

¹² O'sha asar, 110-bet.

degani. Bu so‘z istiloh sifatida kalomning barcha harflarini yoki ba’zi harflarini teskari qilishni anglatadi.

1. Al-maqlubul-ba’z – “bu san’at aningtek bo‘lurkим, bayt ichinda ikki kalima keltururlar. Har qaysisining ba’zi harfi taqdim va ta’xir qilsalar, yana birisi bo‘lur, netokkim: rashk va shukr”.

“*Shukr aylar ta’lating ko‘rsa pari,*

Rashk eltur tole’ingdin Mushtari”¹³.

2. Al-maqlubul-kull – “bu aningtek bo‘lurkим, ul ikki kalima bayt ichinda kelur, tamomi muqaddam va muaxxar bo‘lur, netokkim: ganj va jang. Misoli Rashid aytur”:

“*Ba ganji andarash xosta xosta,*

Ba jangi andarash kashkar orosta”¹⁴.

3. Al-maqlubul-mujannah – “bu ul bo‘lurkим, ul ikki kalimani taqlib qilurlar. Birisi misra’ning yo avvalinda keltururlar, birisi oxirinda, aningtekkim: roy va yor. Ya’ni ikki tarafinda. Misoli Muhammad Ganjaviy aytur”:

“*Ganji davlat dehad guzorishi jang,*

Royi nusrat zanad himoyati yor”¹⁵.

4. Al-maqlubi mustavyiy – “bu aningtek bo‘lurkим, bir misra’ni tamom taqlib qilsalar, yana bir misra’ qo‘por. Hamul misra’ bo‘lur. Misoli Rashidi Vatvot aytur:

Romasham darmoni dardam kard yor,

Royi margam dardi nomardum shumor”¹⁶.

¹³ O’sha asar, 110-bet.

¹⁴ O’sha asar, 111-bet.

¹⁵ O’sha asar, 111-bet.

¹⁶ O’sha asar, 111-bet.

AI-MUKARRAR san’ati. Bu odatdagи takrir hisoblanib, “Funun ul-balogs‘a”da uning ikki turi haqida aytildi. Mullif izohi: “Mukarrar oni ayturlarkim, bir lafz ikki yerda takror qilurlar. Bu ikki qism bo‘lur. Birisi mukarrari malih, birisi mukarrari qabih.

Zamon-zamon qiluram furqatinda nola-u oh,

Ajab-ajabki, aning ko‘ngliga asar qilmas”¹⁷.

Al-mukarrari malih – bunda takrorlanayotgan so‘zlar shaklan aynan bir xil bo‘ladi. Bu ma’lum ma’noda to’liq takrir hisoblanadi. Taroziy Rashid Vatvotdan misol keltiradi:

“Boroni qatra-qatra hameboram abrvor,

Har ro‘zi xira-xira az in chashmi ashkibor”¹⁸.

Bunda so‘zlar aynan takrorlanadi – qatra-qatra, xira-xira. Bu xil mukarrarni to‘liq takrir deb atasa bo‘ladi.

Al-mukarrari qabih – bunda esa “ul lafznikim mukarrardur, nojoyigoh keltursalar, qabih bo‘lur:

Parda olsang orazingdin nigihon,

Pardadin chiqsang qamar shaydo bo‘lur”¹⁹.

Ya’ni takror aynan bir xil bo‘lmaydi – parda, pardadin kabi. Ikki so‘z chiqish kelishigi -din bilangina farqlanyapti. Bu xil mukarrarni esa och (chala) takrir deb atasa bo‘ladi.

AL-MURABBA’ san’ati. Murabba’ so‘zining asl ma’nosи geometrik shakl kvadratga to‘g‘ri keladi. Zamonaviy she’rshunoslikda murabba’ deganda 4 misradan iborat she’r tushuniladi. “Murabba’ (arabcha “to‘rtlik” degani) har bandi

¹⁷ O’sha asar, 120-bet.

¹⁸ O’sha asar, 120-bet.

¹⁹ O’sha asar, 120-bet.

to‘rt misradan tashkil topgan sheriy shaklning nomi sanaladi”²⁰. Bu badiiy san’at emas, balki she’r turlaridan biridir. Ammo mumtoz poetikada murabba’ mustaqil badiiy tasvir vositasi hisoblangan. Xususan, Atoulloh Husayniy risolasida murabba’ga shunday ta’rif beriladi: “Murabba andin iboratturkim, to‘rt misra yoki to‘rt bayt aytilar, yozilganda ham bo‘yiga, ham eniga o‘qisa bo‘lur”²¹. Ta’rifdan anglashiladiki, murabba’ muvashshahga biroz o‘xhash yoki uning bir turidek. Adabiyotshunos A. Rustamov Shamsiddin Qays Roziyning “Al-mo‘jam” asaridan shunga yaqin dalil keltiradi: “Shams-i Qays murabba’ va aning o‘xhashlarin muvashshahqa kiritiptur va deptur: (uldurkim) katak shaklig‘a andoq solurlarkim, ani ham bo‘yig‘a, ham enig‘a o‘qusa bo‘lur. Ani muzalla’ derlar”²². Murabba’ “Funun ul-balogs” da ham alohida lafziy san’at sifatida berilgan. Muallif izohi: “Al-murabba’ aningtek bo‘lurkim, ham uzuni birla o‘qurlar, ham pinhoniy birla o‘qurlar. Misoli Unsuriy aytur:

Tekorur / ko‘ngulga / agarchi / jafongiz,

Ko‘ngulga / jafongiz / ko‘runmas / vafodur.

Agarchi / ko‘runmas, / valekin / raqibing,

Jafongiz / vafodur, / raqibing / balodur.

Misoli digar. Rashididdin Vatvot aytur:

Az furqati / on dilbar / man doim / bemoram,

On dilbar / k-az ishqash / bo dardam / pindoram.

Man doim / bo dardam / bas munis / be yoram,

²⁰ Hojiahmedov A. Mumtoz badiiyat lug’ati. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2008. – B. 59

²¹ Husayniy Atoulloh. Badoe’u-s-sanoe’. Toshkent: G’afur G’ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1981. – B. 107

²² Husayniy Atoulloh. Badoe’u-s-sanoe’. Toshkent: G’afur G’ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1981. – B. 107

Bemoram / bedoram / be yoram / g‘am doram”²³.

Vatvotning bu go‘zal to‘rtligi mashhur bo‘lib, “Badoe’u-s-sanoe”” risolasida ham murabba’ san’atiga xuddi shu she’r misol qilib keltirilgan. Mazkur san’at XIX asrda Ogahiy qo‘llagan “musoviyat tarafayn”ga ham juda o‘xhash.

AL-MULAMMA’ san’ati. Mulamma’ so‘zi arabchada “rang-barang qilingan “ degan ma’noni anglatadi. Bu sifatdosh shakli bo‘lib, uning harakat nomi shakli talmi’ hisoblanadi. Shu bois ba’zi manbalarda mulamma’ talmi’ nomi bilan ham atalgan. Mumtoz poetikada esa bu san’at, asosan, shir-u shakar istilohi bilan keladi. Biroq Taroziy talqinida talmi’ ham, shir-u shakar ham ishlatilmaydi. Balki, forscha nomlanish (shir-u shakar) XV asrdan keyin paydo bo‘lgandir. Muallif izohi: “Bu san’at aningtek bo‘lurkim, she’re ayturlarkim, bir misrayi bir til birla bo‘lur, bir misrayi yana bir til birla:

Ba xudoki xastalarga yuzungiz g‘amidin o‘lmak,

Du hazor bora xushtar zi hayoti jovidoni.

Misoli digar. Muhammad Ganjaviy aytur:

Bu husn-u malohatki, sanga jam’ bo‘lubtur,

Gar noz kuni va nakuni, dil ba...”²⁴

Yuqoridagi har ikkala misollar ham turkiy-forsiy mulamma’ga taaluqlidir. Boshqa san’atlardan farqli Taroziy mulamma’ga kam to‘xtalgan. Ta’rifdan keyin uch misol bilan cheklanadi. Ular faqat turkiy-forsiyda bo‘lib, arabchada misol keltirilmagan.

AR-RADD-UL-MATLA’ san’ati. Mazkur san’at bugun raddi matla’ deb nomlanadi. “Raddi matla””, asosan, “matla’ni takrorlash” degan ma’noni ifodalaydi. Lekin ushbu san’at g‘azalning birinchi misrasini asar oxirida

²³ Shayx Ahmad ibn Xudoydod Taroziy. Funun ul-balogs‘a. – Toshkent: Xazina, 1996. – B. 123

²⁴ O’sha asar, 123-bet.

takrorlashni nazarda tutadi”²⁵. Bunda e’tibor faqat shaklbozlikka qaratilmay, bir misrani g‘azal boshi va oxirida takror keltirish bilan shoir ifodalayotgan g‘oya ta’kidlanadi. Shu tarzda she’rning oxirgi bayti birinchi bayti bilan uzviy bog‘lanadi. Muallif izohi: “Bu san’at aningtek bo‘lurkim, she’rning matla’ini rad qilurlar. Bu uch nav’ bo‘lur. Biri ulkim matla’ning avvalgi misraini tamom maqta’dan rad qilurlar”. Misoli uchun Taroziy o‘z g‘azalini keltiradi:

“*Kel, ey soqiy, ayoq tut, bo ‘lma g ‘ofil,*

Chu keldi yor-u xurram bo‘ldi mahfil.

May ichgin, zohido, bor ersa aqling,

Munungdek kunda sabr etkaymu g‘ofil.

Unar gullar, bo‘lur jannatdin ortuq,

Qayu yerdakim ul qilsa manzil.

Quyosh o‘zin sanga o‘xshotsa, tong yo‘q,

Vale oy o‘xshagay yuzungga mushkil.

Taroziy qazg‘uda bordi ilikdin,

Kel, ey soqiy, ayoq tut, bo ‘lma g ‘ofil”²⁶.

“Ikkinchi nav’i ulkim, avvalgi misra’ning qofiyasini maqta’ning oxirinda rad qilurlar”. Misoli Kamol Xo‘jandiy aytur:

“Bodeki nest az sari ko ‘yi tu nest bod,

Va-r xastu nest hamdami bo‘yi tu nest bod.

To xast dar sabo asare hastiyu nest,

Oshuftae salosili mo‘e tu nest bod...

²⁵ Hojiahmedov A. Mumtoz badiyyat lug’ati. – Toshkent: Yangi asr avlod, 2008. – B. 80-81

²⁶ Shayx Ahmad ibn Xudoydod Taroziy. Funun ul-balogscha. – Toshkent: Xazina, 1996. – B.128

Gar go‘yam, Kamol, zi man hojate bixoh,

Go‘yam raqi *az sari ko ‘yi* tu nest bod”²⁷.

“Uchinchi nav’ ulkim, avvalgi misra’ning qofiyasini ikkinchi bayt yo uchunchi baytta rad qilurlar”. Misoli Hasan aytur:

“Ey zi jomi labat jahone *mast*,

Raftam az dast agar nagiri dast.

Doshtam dil chu shishayi sofiy,

Chashmi mayguni tub a maqsad shikast,

Chashmat az davri zulfat ogah nest,

Holi shabro xabar nadorad *mast*”²⁸.

Birinchi va ikkinchi nav’lar to‘liq g‘azalga taaluqli bo‘lib, uchinchi misolda matla’ maqta’gacha bo‘lgan qaysidir baytga oid bo‘ladi. Raddi matla’ning birinchi turi bugun mustaqil san’at sifatida aytilib, qolgan ikki turi aksariyat manbalarda aytilmaydi yoki *raddi qofiya* nomi bilan boshqa mustaqil san’at tarzida beriladi.

AL-RADD V-AL-AKS san’ati. Bu san’atning belgilari mumtoz poetikadagi tard-u aksda ko‘rinadi. Tard-u aks arabchada “teskari qilib takrorlash” ma’nosini anglatadi. Ya’ni she’rning birinchi misrasida keltirilgan ikki so‘z yoki so‘z birikmalarini keyingi misrada o‘rnini almashtirib qaytarishdan iborat bo‘lgan she’riy san’atdir. Bundagi takrorlanish ma’noga ham ta’sir etib, uni yangilaydi. Ammo Taroziy bu san’atni izohlaganda so‘z yoki so‘z birikmali takrorini nazarda tutmaydi. Balki, she’rning toq misralarini ikki bo‘lakka ajratib, juft misralarda ularni teskari qilib takrorlashni nazarda tutadi. Muallif izohi: “Bu ul bo‘lurkim, avvalg‘i misra’ni so‘ngg‘i misra’da bo sukuna qilurlar:

²⁷ O’sha asar, 128-129 betlar.

²⁸ O’sha asar, 129-bet.

Jon-u ko‘ngil marhami la’li labing yodidur,
La’li labing yodidur jon-u ko‘ngil marhami”²⁹.

“Misoli Nosir aytur:

Az labi jononi man zinda buvad joni man,
Zinda buvad joni man az labi jononi man.

In dili hayroni man oshiqi shaydoi tust,
Oshiqi shaydoi tust in dili hayroni man...”³⁰

Shu tarzda takrorlanish she’r adog‘iga qadar davom etadi. Bu kabi rad qilish baytlarni ham shaklan, ham ma’nan ko‘rkamlashtiradi. Ba’zi risolalarda bu san’at “aks” deb ham nomlangan. Jumladan Atoulloh Husayniy aksning bir necha nav’lari haqida ma’lumot beradi. Bunda misralararo takrorlar turlicha ko‘rinish kasb etadi, “Funun ul-balogs”da esa yuqorida keltirilgan faqat bir nav to‘g‘risida aytilgan.

AS-SEHR-UL-HIOL san’ati. Muallif izohi: “Bu san’at aningtek bo‘lurkim, avvalg‘i misrani so‘ngg‘i misra’g‘a mavquf (to‘xtatilgan) va mavsuf qilurlar”. Ya’ni birinchi misraning oxiridagi so‘z keyingi misraga bog‘liq bo‘ladi. Bu aloqadorlik ikki xil ko‘rinishga ega. Avvalgi nav’ida misra so‘nggidagi so‘z jumlanı yakunlamaydi, toki o‘sha kalom ikkinchi misraga qo‘sib o‘qilmaguncha. “Bu aningtek bo‘lurkim, avvalgi misra’ mavquf bo‘lur, so‘ngg‘i misra’ni o‘qimog‘uncha tamom bo‘lmas”. Misoli uchun Taroziy o‘z baytidan keltiradi:

“Yuzung uza sehrki, sabo qildi tor-tor
Zulfungni ko‘rdi jon-u ko‘ngul bo‘ldi beqaror”³¹

²⁹ O sha asar, 134-bet.

³⁰ O’sha asar, 129-bet.

³¹ O’sha asar, 138-bet.

Ya’ni yuzing uzra sehr bor, sabo tor-tor (parishon) qilgan sochingni ko‘rib, jon-u ko‘nglim beqaror bo‘ldi.

Ikkinchi nav’ida esa birinchi misra oxiridagi so‘z birinchi jumlanı yakunlagan holda ikkinchi misradagi fikrga ham taaluqli. Bir paytda u ikkinchi misra bilan qo‘sib o‘qilib, unga boshlanma yasaydi. “Bu aningtek bo‘lurkim, avvalg‘i misra’ning oxirinda lafze keltururlarkim, lafz avvalg‘i misra’ni tamom qilur. Va ikkinchi misra’g‘a taqi parvarish berur”. Misol yana mullif ijodidan keltiriladi:

“Mehr yig‘lar g‘amingda qon har shom,

Shom etokinda zohir ul asare”³².

Ya’ni mehr (quyosh) hajringda har shomda qon yig‘laydi, uning qon ko‘z yoshlarining asari esa shomda ayon bo‘ladi. Quyosh botish – shom mahalida quyosh nurlari qizil rang – qon tusiga kiradi.

“Badoe’u-s-sanoe”da bu san’at “sehr-i halol” deb nomlangan va unda faqat bir tur (2-tur) haqida ma’lumot berilgan. Bu san’at bugungi nazariy manbalarda uchramaydi.

Ishning Taroziy asarida lafziy san’atlarning o‘rni va talqini deb nomlangan ushbu qismidan quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

1. “Funun ul-balogs‘a”ning “Al-fann-us-solis fis-sanoe’-ish-she’r” bobida mustqil holatda 64 she’riy san’at mavjud.
2. Risoladagi lafziy san’atlar soni 25 tani tashki etadi, biroq ayrim san’atlar o‘z ichki nav’lariga ham egadir. Agar ular ham hisoblansa, jami lafziy san’atlar hisobi 40 tani ko‘rsatadi.
3. Ichki turlarga lafziy san’atlar quyidagilardir: ular 6ta – at-tajnisot, al-maqlubot, radd-ul-ajz alas sadr, al-hashviyat, al-ishjo, as-sehr-ul-hilol. Bularda ham farqlilik mavjud bo‘lib, 4 san’atning turlari alohida nomlangan va 2 san’at turlari nomlanmagan.

³² O’sha asar, 138-bet.

1.2 MA’NAVIY SAN’ATLAR TADQIQI.

Yuqorida qayd etilganidek “Funun ul-balogs‘a” risolasining uchinchi bobida 39 ma’naviy san’at haqida ma’lumot beriladi. Bu san’atlarning ba’zilari ichki turlarga ham ega. Jumladan, at-tashbehot, al-irsolul-masal, al-iltifot, al-jam’-ul-mufrad san’atlari bu xususiyatga ega.

1. At-tashbehot san’ati 7 nav’ bo‘lib, nav’lar quyidagicha nomlangan: tashbehi tanqis, at-tashbehi muallaq, at-tashbeh-ul-kinoyat, at-tashbehut-tavsiya, at-tashbehul-aks, at-tashbehul-izmor, at-tashbeh-ut-taze’.
2. Al-irsolul masal san’ati. Bu san’at ham 2 nav’ga ega: al-irsolul masal va al-irsolul-masalayn. Biroq muallif nazarida ularning har biri alohida mustaqil san’at sifatida talqin etilgan.
3. Al-iltifot san’ati ikki turli, ammo nav’lar nomlanmagan.
4. Al-jam’-ul-mufrad ikki nav’ – muzhar va muzmar.

Quyida “Funun ul-balogs‘a”dagi ba’zi ma’naviy san’atlarning izohi taqdim etiladi:

AL-IBDO’ san’ati. Ibdo’ arabchada “bir yangi nimani keltirmak” ma’nosini anglatadi. Shu ma’noda bu san’atning asl ma’nosini ibtido so‘ziga mos keladi. Ibtido esa biror nimaning boshlanish yoki yangilanish qismidir. Muallif izohi: “Bu san’at aningtek bo‘lurkim, shoir har yangi ma’no bila (bo‘yla) qilurkim, hech kimarsa etmamish bo‘g‘ay. Va muni bayoni voqe’ taqi derlar”. Ya’ni bunda shoir baytlar yoki misralararo fikriy yangilik, kalomiy kashfiyot qilmog‘i darkor. Va bu ifoda boshqa hech qayerda hech kim tomonidan tilga olinmagan bo‘lishi shart. Misoli uchun Taroziy o‘z baytidan keltiradi:

“Borurmu zulfunga hargiz qaro basmosa ko‘nglumni,

Tururmu qoshinga qorshu boshi evrulmasa “yo”ning”³³.

³³ O’sha asar, 101-bet.

Baytda muallif kitobat san’ati bilan bog‘liq fikriy yangilik hosil qilgan. Bu san’at Atoulloh Husayniy risolasida “ibdo” deb nomlangan. “Ochig‘i uldurkim, so‘zlaguchi bir ma’noni ixtiro qilurkim, hech kim ul ma’noda andin ilgarilamagan bo‘lur”³⁴. Va ibdo’ning ikki nav’i haqida ma’lumot berilgan. Bu san’at zamonaviy she’rshunoslikda deyarli uchramasligi bilan xarakterlidir.

AL-ILTIFOT san’ati. Iltifot arabcha “lutf” so‘zidan olingan. Bu san’at she’r misralarida shaxs ko‘chirilishini anglatadi. Ma’lumki, nutqimizda uch shaxs mavjud: so‘zlovchi, tinglovchi va nutqdan tashqari o‘zga. Baytda iltifot qo‘llanganda shu uch shaxs biridan ikkinchisiga ko‘chib yuradi. Muallif izohi: “Bu san’at ikki qism bo‘lur. Birisi ulkim, muxotabadin muboyibag‘a bormoq yo g‘aybdin xitobqa kelmoq. Misol:

Tushti ishim bir yangoqi ol bila,

Bag‘dodi ko‘nglumni zulfi ol bila.

Qubla berib jon olurg‘a, ey sanam,

Bo‘lmasang rozi, ko‘ngulni ol bila”³⁵.

Yuqoridagi to‘rtlikniing dastlabki ikki misrasida shoir muxotaba (xitob qiluvchi)dan keyingi ikki misrasida mug‘oyiba (murojaat etuvchi)ga ko‘chadi. Bu san’atning ikkinchi nav’ida “va ikkinchi qismi ul bo‘lurkim, so‘zni tamom qilg‘ondin so‘ngra masal tariqi birla yo duo yo bir latifa birla iltifot qilurlar. Misoli bukim:

Sabr ayladim nechaki kuydi firoqingiz,

Ey sabr, mehnat o‘tig‘a yaxshi panoh sen”³⁶.

³⁴ Husayniy Atoulloh. Badoe'u-s-sanoe'. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1981. – B.190

³⁵ Shayx Ahmad ibn Xudoydod Taroziy. Funun ul-balogs'a. – Toshkent: Xazina, 1996. – B. 105

³⁶ O’sha asar, 105-bet.

Yuqoridagi baytning birinchi misrasida shoir mug‘oyiba (murojaat etuvchi) tarzida so‘zlayapti. Ikkinchi misrada esa sabr bilan bog‘liq shaxsiy mulohaza aytilib, sabrga murojaat qilinmoqda: “Ey sabr, mehnat o‘tig‘a yaxshi panoh sen”. “Badoe’u-s-sanoe”da iltifotning olti nav‘i haqida ma’lumot berilgan. Bu san’at bugungi tilshunoslikdagi shaxs-son qo‘sishimchalari sinonimiyasiga juda o‘xhash.

AL-INTIBOH san’ati. Bu ma’naviy san’at tanbeh mazmunida bo‘lib, uni “tanbeh” san’ati desa ham bo‘ladi. Al-intiboh “Funun ul-balogs”ga zamondosh risolalarda ham deyarli uchramaydi. Jumladan, Atoulloh Husayniy risolasida intiboh haqida ma’lumot berilmagan. Muallif izohi: “Bu san’at aningtek bo‘lurkim, mamduhni yo mahbubni yo nosihni yo voizni yo zohidni yo o‘zga kishini nasihat tariqasi birla tanbeh qilurlar”. Muallif o‘z baytidan keltiradi:

“Hazar qil xasta dillar nolasidin,

Ki kuyganlar damida bir asar bor”³⁷.

Bu go‘yo didaktik ruhda, didaktik mazvuda bayt bitishdir. “Misoli digar. Atoyi aytur:

Ayo zolim, qiyomat bo‘lmag‘aymu?

Sening zulmungni mendin so‘rmag‘aymu?”³⁸

Xarakterlisi shundaki, intibohda aksariyat holatda tanbeh bevafo yorga qarata uning hajrida kuygan oshiq tilidan aytildi. Atoyi baytida xuddi shunday mazmun anglashilmoqda.

AL-ISTIFHOM san’ati. Istihfom so‘zi arabchada “fahm etish” ma’nosini anglatadi. Ya’ni biror jumla, fikrning botiniy ma’nosini nozik fahmlab anglab yetish ma’nosida. “Bu san’at aningtek bo‘lurkim, she’re ayturlarkim, ikki ma’nog‘a muhtamal bo‘lg‘ay: zohiriy bir ma’nog‘a va zamiriy bir ma’nog‘a.

³⁷ O’sha asar, 106-bet.

³⁸ O’sha asar, 106-bet.

Faammo shoirning g‘arazi zamirinda ma’no turur”³⁹. Keltirilgan ta’rifdan istihfom bir qarashda iyhom san’atiga o‘xhash. Biroq farqli tomoni iyhomda har ikkala ma’no ham muhim hisoblanib, ular teng mavqeda bo‘ladi. Istihfomda esa faqat zamiriylar ma’no ahamiyatli bo‘lib, o‘quvchi uni nozik fahmlashi darkor. Misol yana Taroziy ijodidan keltiriladi:

“Raqibing haybatidin qo‘rqub, ey jon,
Ketorgaymen ko‘nguldin mehringizni”⁴⁰.

Baytning zohiriylar ma’nosidan yorning raqibi kuchliligidan oshiq yordan, ko‘nglidagi ishqidan voz kechishi anglashiladi. Zamirda esa oshiq tilidan raqibning haybatidan qo‘rmaslik, undan omon qolish, uni mag‘lub etish uchun ham ma’shuqa mehrini ko‘ngilga joylash ma’nosidagi izhor aytilmoqda. Navbatdagi misolda ham shunga yaqin ma’no ifodalangan. “Misoli digar. Hoji aytur:

Agar yuz ming jafo tegsa manga ul qoshlari yodin,
Mag‘azalloh, ketorgaymen bu ko‘nglumdan aning yodin”⁴¹.

Istifhom san’ati ham bugungi nazariy manbalarda va hatto “Badoe’u-s-sanoe”da ham uchramaydi. Taroziy keltirgan misollar ham asosan turkiyda. Bu esa al-istifhomning sof turkona badiiy san’at ekanligidan darak beradi.

AL-ISTIDROK san’ati. Istidrok so‘zi “idrok etish” ma’nosida bo‘lib, bu san’at ham al-istifhomga o‘xhash. Muallif izohi: “Bu san’at aningtek bo‘lurkim, so‘zni andog‘ lafz birla og‘oz qilurlarkim, mustame’g‘a hajv gumoni bo‘lur. Istidrok qilsalar, madh hosil bo‘lur”. Misol:

“Qiloyin seni ser yaxshi mahalda,
Ijozat bersang el ichina tahsin”⁴².

³⁹ O’sha asar, 107-bet.

⁴⁰ O’sha asar, 107-bet.

⁴¹ O’shq asar, 108-bet.

Ta’kidlanganidek istidrokda ikki xil ma’no anglashiladi. O‘quvchi anglagan zohiriylar ma’no asosiysi hisoblanmay, muallif nazaridagi ma’no yetakchidir. Bir qarashda baytda kinoya, mazah ifodalangandek ko‘rinsa ham, shoir, aslida, bu baytni kimgadir madh uchun bitgan bo‘ladi. “Misoli digar. Rashid Vatvot aytur.

Asari mir bihamki, bimonad ba jahon,

Mir xohamki, bemonad ba jahon dar asare”⁴³.

Al-istidrok san’ati bugungi nazariy manbalarda uchramaydi. Atoulloh Husayniyning “Badoe’u-s-sanoe” risolasida ham bu san’at haqida aytilmagan.

AL-MUTAZOD san’ati. Mutazod arabcha tazod so‘zidan olingan bo‘lib, “teskari, qarama-qarshi” degan ma’noni bildiradi. Bu bayt va misralarda ma’no jihatdan o‘zaro zid, qarama-qarshi, antonim so‘zlarni qo‘llash bilan bog‘liq bo‘lgan ma’naviy san’atdir. Mutazod an’anaviy mumtoz poetikadagi tazod san’atining aynan o‘zidir. Muallif izohi: “Bu san’at ul bo‘lurkim, ikki narsa keltururlarkim, biri birining ziddi bo‘lg‘ay, netokkim: suv va o‘t”. Misol:

“O‘tlug‘ ko‘zida suv, ajab ermasmu, hakim,

Hech yerda bo‘lmas, albatta, bodomi garmu tar”⁴⁴.

Misoli digar. Oyati “Kalom”:

“Faammo man a’to v-atqaqo va saddaqa bil husno fasanuyassiruhu lilyusro. Va ammo man baxila vastag‘no fakazzaba bil-husno fasanu yassiruhu lil-usro”. [Ammo tuhfa qigan, Ollohdan qo‘rqan va yaxshilikcha sadaqa qilgan kishiga yengilliklar keltiramiz. Ammo baxillik qilgan, boylik bilan gerdaygan va yaxshiliklarni inkor etgan kishiga yaqinda biz qiyinchiliklarni muyassar qilamiz]. Keltirilgan oyatdagi Ollohdan qo‘rqan, yaxshilikcha sadaqa qilgan birikmalari

⁴² O’sha asar, 108-bet.

⁴³ O’sha asar, 109- bet.

⁴⁴ O ‘sha asar, 112-bet.

baxillik qilgan, boylik bilan gerdagan va yaxshilikni inkor etgan birikmalariga zid kelib, al-mutazodni tashkil etmoqda.

AL-MUHTAMILU LI-ZIDDAYN san’ati. Muallif izohi: “Bu san’at aningtek bo‘lurkim, agar madhqa ehtimol qilsalar, madh hosil bo‘lur. Agar hajvga haml qilsalar, hajv va muni *zulvajhayn* taqi derlar”. Bu san’at baytda qo‘llanganda undan ikki xil ma’no anglashiladi. Xarakterlisi shundaki, bu ikki ma’no mavqe jihatdan teng bo‘lib, uni qay ma’noda tushunish o‘quvchi idrokiga bog‘liq. Misol:

“Sening birla erur zindon guliston,

Bo‘lur, sen bo‘lmasang, bo‘ston zindon”⁴⁵.

Bu baytdan ham hazil, hajv, ham madh gumoni, ma’nosи anglashiladi. “Misoli digar. Rashid aytur:

Ey sarvari xuboni jahoniy jovid,

Peshi dahamat zarra namoyad hurshid”⁴⁶.

“Misoli degar. Sakkokiy aytur:

Atlas erur saqollari, barcha burudlari nasij,

Garchiki durru donadur, og‘zini ochsa to‘lasi”⁴⁷.

Sakkokiy baytida ham hajv va madh ma’nosи birgalikda anglashiladi. Al-muhtamilu li-ziddayn san’ati ham zamonaviy risolalarda qayd etilmagan. Atoulloh Husayniy risolasida ham u haqda ma’lumot yo‘q.

AL-MUVAJJAH san’ati. Muallif izohi: “Bu san’at aningtek bo‘lurkim, mahbubni yo mamduhni bir tariqa sifat birla zikr qilib, yana bir turluk sifatini anga tamsil qilurlar”. Bu san’at go‘yo tamsil (misol keltirish) sana’tiga o‘xhash. Biroq tamsilda birinchi misrada yorning biror ta’rifi yoki sifati haqida aytilib, ikkinchi

⁴⁵ O’sha asar, 119-bet.

⁴⁶ O’sha asar, 119-bet.

⁴⁷ O’sha asar, 119-bet.

mistrada shu sifatga doir tabiatdan biror misol keltiriladi. Al-muvajjahda esa ikkinchi misradagi misol ham birinchi misraga tayanadi, ya’ni yorning yana boshqa bir sifati tamsil qilinadi, borliqdan misol keltirilmaydi. Demak, al-muvajjah tamsil emas. Biroq unda tamsilning ba’zi uchqunlari bor. “Funun ul-balogs‘a”da tamsil haqida boshqa alohida ma’lumot yo‘q. Adabiyotshunos Burobiya Rajabova “Tamsil san’ati” nomli asarida ham tamsil haqida ma’lumot beruvchi manbalar qatoridan “Funun ul-balogs‘a”ni sanamaydi. Taroziy o‘z ijodidan Al-muvajjahga misol keltiradi:

“Har lahza xasta jonima g‘amzang balo qilur,
Andog‘ki bu ko‘ngulni qoshing mubtalo qilur”⁴⁸.

Birinchi misrada oshiq yorning ishvali qarashlarini xasta joniga balo deb atab, ikkinchi misrada fikrini dalillash uchun yorning qoshini tamsil qilmoqda. Bu ma’naviy san’at ham zamonaviy she’rshunoslikda uchramaydi.

AL-LUG‘Z san’ati. Lug‘z so‘zi arabchada “yopiq narsa, yopiq nimarsa” ma’nosini anglatadi. “Lug‘z mavzun kalom bo‘lub, bir nimaning ahvol-u sifatin zikr etmak bila aning zotig‘a dalolat qilur va shart uldurkim ul ahvol-u sifatning yig‘indisi aning zotig‘a asos bo‘lg‘ay, garchi alar o‘zga nimalarning zotinda dag‘i topilsa ham”⁴⁹.

Lug‘z keyingi davr manbalarida badiiy san’at emas, balki alohida she’riy janr sifatida talqin qilinadi. Hatto Navoiy lug‘zлари ham mustaqil janrdir. Biroq mumtoz poetikaga doir bir talay risolalarda lug‘z ma’naviy san’at sifatida talqin qilingan. Ba’zi zamonaviy risolalarda ham shunday mulohazalar mavjud. Adabitotshunos I. Adizova o‘zining “Uvaysiy ijodida janrlar takomili” nomli ilmiy risolasida lug‘zni she’riy san’at sifatida baholaydi: “Har bir she’rni janr sifatida tasniflashda ma’lum belgilar inobatga olinadi. Ammo lug‘zni hajm, vazn, qofiya,

⁴⁸ O’sha asar, 119-bet.

⁴⁹ Husayniy Atulloh. Badoe'u-s-sanoe'. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1981. – B. 205

radif nuqtayi nazaridan kuzatsak, xos xususiyatlar ko'zga tashlanmaydi. Demak, lug‘zni alohida janr deb qarash haqiqatga to‘g‘ri kelmaydi. Uni she’riy san’atlardan biri deb qarash to‘g‘riroqdir”⁵⁰. Shayx Ahmad Taroziyining “Funun ul-balogs‘a” risolasida ham lug‘z shu ma’noda sharhlangan. Muallif izohi: “ Bu aningtek bo‘lurkim, bir narsaning otin va haqiqatin yoshurub, mushabbah /un/ bih lafze birla savol qilurlar”. Taroziy o‘z lug‘zidan keltiradi:

“Nedur ul la’lki, paydo bo‘lur andin guhar? –

Goh paydo bo‘lur anda may-u gah shir-u shakar”⁵¹.

Lug‘z badiiy san’at sifatida turli she’r shakllarida kelishi mumkin. Jumladan, g‘azal, qit’a, ruboiy janrlari tarkibida. E’tiborlisi, lug‘z badiiy san’at sifatida qo‘llanganda muallif tomonidan uning javobi aytilmaydi. Lug‘z she’riy janr sifatida chiston ham deyiladi. Lug‘z va chiston xalq og‘zaki ijodidagi eng ommabop janr hisoblangan topishmoqqa juda yaqin turadi. Yuqorida Taroziy qalamiga mansub lug‘zning javobi labdir.

AL-LAFF V-AN-NASHR san’ati. Bu ma’naviy san’at an’anaviy “yig‘ish va yoyish” san’ati hisoblanadi. Lug‘atda laff so‘zi “turmoq”, nashr so‘zi “yoymoq” ma’nosini anglatadi. Muallif izohi: “Bu san’at aningtek bo‘lurkim, she’r ichinda norasolar zikir qilurlar, yana aning muqobalasinda norasolar keltururlarkim, ul norasolarga mushobih va munosib bo‘lg‘ay. Bu taqi ikki nav’ bo‘lur: laff va nashri murattab va laffi nashri mushavvash. Laff va nashri murattab budur:

Zulf-u yuzung firoqida shom-u sahar erur,

Bu oh bodpoyi falak birla haminon”⁵².

Bu aningtek bo‘lurkim, tartib birla keltururlar, netokkim zulf birla yuzni zikr qildi, zulfning muqobalasinda shom kelturdi, yuzning muqobalasinda sahar kelturdi.

⁵⁰ Adizova I. Uvaysiy ijodida janrlar takomili. – Toshkent: Muharrir, 2011. – B. 12

⁵¹ Shayx Ahmad ibn Xudoydod Taroziy. Funun ul-balogs‘a. – Toshkent: Xazina, 1996. – B. 126

⁵² O’sha asar, 133-bet.

Misoli digar budur:

Qomat-u zulf-u ko‘zungdin muttasil,

Nargis-u sabza, binafsha munfail”⁵³.

Laff va nashri mushavvash: “Mushavvash ulkim, tartibi rioyer qilmasalar netokkim yuqorig‘i baytta “nargis”ko‘zung mushobihidur, qomatning muqobalasida kelibtur va “sarv” zulf muqobalasinda kelibtur. Va “binafsha” ko‘z muqobalasinda. Agarchi bu tariqa ham san’attur, faammo murattabning poyasi mundun balandtur.

Misoli digar. Salmon aytur:

Zi savdoysi ruxu zulfash g‘ame doram shabo ro‘ze,

Maro subhi visoli u namegardash shabi ro‘ze”⁵⁴.

Baytni tarjima qilishga harakat qildik: Yuz-u sochining savdosidan kecha-yu kunduz g‘amdamen, Uning visolining tongi menga kecha-yu kunduz yetib kelmaydi. 1-misrada yuz va soch so‘zleri keltirilgan. Bilamizki, mumtoz she‘riyatda yuzning yorug‘ligi kunduzga, sochning qoraligi esa kechaga qiyoslanadi. 2-misrada kecha va kunduz so‘zleri ketma-ket qo‘llangan. Baytda yuz va soch kecha va kunduzga to‘g‘ri kelmoqda. Bu moslik esa laff va nashrning teskari ko‘rinishidir. Taroziy talqinidagi laff va nashrning ikkinchi nav‘i boshqa risolalarda deyarli uchramaydi. Shuningdek, “Badoe‘u-s-sanoe” asarida ham bu san’atning faqat odatdagi turi haqida ma’lumot berilgan xolos.

AL-JAM’-UL-MUFRAD san’ati. Bu ham ma’naviy san’atlar sirasiga kirib, mullif uni shunday izohlaydi: “Bu aningtek bo‘lurkim, ikki narsani bir san’atga jam’ qilurlar.” Uning ikki turi haqida aytildi:

“Zulf erur husnunga oshiq men bikin,

Lojaram bir dam qarori yuq turur”⁵⁵.

⁵³ O’sha asar, 133-bet.

⁵⁴ O’sha asar, 134-bet.

Yuqoridagi bayt al-jam'-ul-mufradning birinchi ko‘rinishi bo‘lib, *muzhar* deb nomlanadi. Unda shoir ikki narsani (zulf va o‘zini) bir sifatga (beqarorlikka) jam’ qilmoqda.

“G‘uncha og‘zing‘a mushobehdur, vale

Men bikin doim giribon chokdur”⁵⁶.

Bu al-jam'-ul-mufradning ikkinchi turi bo‘lib, *u muzmar* deb nomlanadi. Unda ikki narsa (g‘uncha va oshiqning o‘zi) bir san’atga jam’ qilinadi. Lekin ularning jam’i, ya’ni zamiri aytilmaydi. Shunga ko‘ra muzhar va muzmar bir-biridan farqlanadi.

AL-KALOM-UL-JOME’ san’ati. Muallif izohi: “Bu aningtek bo‘lurkim, shoir baytlarni pand va nasihat birla oroyish qilur yo falaktin yo zamondin shikoyat qilur”. Bu san’at al-intibohga juda yaqin. Biroq farqlisi shundaki, al-kalom-ul-jome’da shoir o‘z-o‘ziga pand-nasihat qiladi va keyingi misrada shikoyat ma’nosи anglashiladi. Misol Taroziy bayti:

“Taroziy, qilma dunyodin shikoyat,

Kanaf birla urushmoq sirfa qilmas”⁵⁷.

Bu baytda Taroziy o‘z-o‘ziga shunchki murojaat qilmay, nasihat tarzida so‘zlamoqda. Al-kalom-ul-jome’ zamonaviy she’rshunoslikdagi tajrid san’atiga yaqin: “Tajrid adabiyotshunoslikda shoirning o‘ziga boshqa bir shaxs kabi murojaat etish usulini bildiradi”⁵⁸. Ammo bunda murojaat oddiy bo‘lib, u nasihat tarzida bo‘lmasligi ham mumkin. Biroq tajrid Taroziy nazdida tamomila boshqa mohiyatga ega badiiy san’atdir. Bu haqda ishning keyingi bobida ma’lumot beriladi.

Barcha badiiy san’atlar izohidan so‘ng Taroziy alohida she’riy san’at maqomida bo‘limgan, biroq nazmda uchrab turuvchi ba’zi alfozlar haqida ma’lumot beradi:

⁵⁵ O’sha asar, 140-bet.

⁵⁶ O’sha asar, 140-bet.

⁵⁷ O’sha asar, 145-bet.

⁵⁸ Hojiahmedov A. Mumtoz badiyat lug’ati. – Toshkent: Yangi asr avlod, 2008. – B. 121

“Bilkim, muncha sano’ekim, zikr qiduk, barchasi asl /ahli/ bade’ qoshinda mashhur va mo’tabardur va mundun boshqa bir necha san’atkim, mutaaxxirlar qoshinda urf bo‘lur erdi, oni taqi bayon qiloli, to she’rning hech daqiqasi bu nusxadin muhmal qolmag‘ay”⁵⁹. Ular quyidagilardir:

1. “*Badeha* – she’rni fikrsiz, taammulsiz aytmoqni badeha o‘qurlar:

Meni o‘lturgil, ey sarvi ra’no,

Qilurmen har zamon yuz sheva angiz”⁶⁰.

2. “*Nazar* – she’r ichinda ma’no qasd qilurlarkim, taammulsiz tobsa bo‘lmas:

Dushman meni o‘lturmadi-yu men dedim: - o‘ltur!

Dushman so‘zini eshitib, o‘lturmading, ey do‘st”⁶¹.

3.” *Solis* – she’rning alfozi andog‘ kerakkim, eshitmakka laziz-u xush oyanda bo‘lur:

Ul –azal subhindakim izhori qudrat qildilar,

Netong ne mazhari husn-u malohat qildilar”⁶².

4. “*G‘azal* – she’rning alfozi mahkam va ustuvor bo‘lur:

Muayyan ko‘zlarining ayni balodir,

Muattar zulfungiz mushki Xitodur”⁶³.

5. “*Sahli mumtane’* – she’r ayturlarkim, o‘qumoqqa oson bo‘lur, faammo aytmoqqa dushvor:

Qoshing mehrobtur, jono, jamoling qiblai olam,

⁵⁹ Shayx Ahmad ibn Xudoydod Taroziy. Funun ul-balogs‘a. – Toshkent: Xazina, 1996. – B. 145

⁶⁰ O’sha asar, 145-bet.

⁶¹ O’sha asar, 145-bet.

⁶² O’sha asar, 145-bet.

⁶³ O’sha asar, 146-bet.

Soching kufr-u ko‘zung kofir,yuzung nuri erur iymon”⁶⁴.

6. ”Nomutanohiy – bayt ayturlarkim, har necha o‘qusalar, hech tugonmas:

Chun tiri kamon orad agar on shahi feruz,

Xarkushaki bechora az in “lor”, badon “lur”.

Az on “lur”u badin “lor”, az in “lor”u badon “lur”,

Az on “lur”i badin “lor”, az in “lor”i badan “lur”

Az on “lur”i badin “lor”, azin “lor”i badon “lur”.

Az on “lur”i badon “lor”, az in “lor”i badon “lur”.

O‘qusa had va imkoni bor, hargiz tamom bo‘lmas.”⁶⁵

Yuqorida nomlari qayd etilgan shakllar she’r janrlariga ham, ba’zi xususiyatlari bilan badiiy san’atlarga ham o‘xshab ketadi. Masalan, ular ichidan g‘azal mumtoz poetikada alohida mustaqil she’riy janr hisoblanadi. Badeha ham she’r shakli sanaladi. Sahli mumtane’, nomutanohiy, solis, nazar kabi turlar esa lafziy, ma’naviy san’atlarga juda yaqin. Taroziy ularni mustaqil badiiy san’at deb atamaydi, biroq bu shakllar el orasida qo‘llangani va mashhur bo‘lgani uchun risolasiga kiritganini aytib o‘tadi.

Ishning “Asarda ma’naviy san’atlar tadqiqi” deb nomlangan qismidan quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

1. “Funun ul-baloga”ning “Al-fann-us-solis fis-sanoe’-ish-she’r” bobida 39 ta ma’naviy san’at mavjud.
2. Ulardan to‘rt san’at ichki turlarga ega: at-tashbehot (7 nav’), al-irsolul-masa (12 nav’), al-iltifot (2 nav’), al-jam’-ul-mufrad (2 nav’) san’atlari.

⁶⁴ O’sha asar, 146-bet.

⁶⁵ O’sha asar, 146-bet.

3. “Funun ul-balogs‘a”dagi al-intiboh, al-istidrok, al-istifhom kabi ma’naviy san’atlar sof turkona bo‘lib, ular forsiy manbalarda deyarli uchramaydi.
4. Barcha she’riy san’atlar izohlaridan so‘ng Shayx Taroziy badeha, nazar, solis, g‘azal, sahli mumtane’, nomutanohiy kabi mustaqil holatda badiiy san’at hisoblanmasa-da, biroq xalq orasida mashhur bo‘lgan shakllar haqida ma’lumot beradi.

2. “Funun ul-balogs‘a”dagi ilmi bade’ bobining o‘ziga xos xususiyatlari.

2.1 Risolaning shu tipdagi asarlar bilan muqoyasasi.

Ahmad Taroziyning “Funun ul-balogs‘a” risolasi turkiy mumtoz poetika olamida alohida mavqe va ahamiyatga ega asardir. Avvalo, risolaning turkiy tilda bitilganligi eng ustuvor xususiyat hisoblanadi. Shu ma’noda “Funun ul-balogs‘a” o‘zidan keyin yaratilgan turkiydagi ko‘plab adabiy-nazariy manbalar uchun asos vazifasini o‘tadi. Jumladan, bugungi mumtoz adabiyotshunoslik masalalarini yorituvchi qo‘llanma, darslik va ilmiy risolalarning tub ildizlari Taroziy qarashlariga bilan mutanosib. Bu borada A. Hojiahmedov, S. Matjon va Y. Is’hoqovlarning mumtoz adabiyot nazariyasiga doir asarlarini sanab o‘tish mumkin.

“Funun ul-balogs‘a” o‘z davri adabiy muhiti ehtiyoji yanglig‘ yaratilgandir. Shayx Ahmad asarini qaysi shaklda yaratmoqchi bo‘lgani, bundan ko‘zlagan asosiy maqsadini ham yaxshi ifodalagan. Uningcha, burun o‘tgan adabiyotshunos olimlar adabiyot nazariyasi bo‘yicha kitob yozganlarida ko‘pincha bir masalaga - yo she’r turlari masalasiga, yoki vazn masalasiga, yoki badiiy san’at masalalariga to‘xtalganlar. Yoki biri she’riy janr xususiyatlarini yoritib bergen. Shayx Ahmad esa bu sohada mukammal bir qo‘llanma yaratishni, o‘z risolasida nazariy masalalarning barchasini yoritib, tahlil etib berishni niyat qiladi, toki uni o‘qigan kishilar nazariyadan mumkin qadar to‘la ma’lumot va foyda olsinlar: “Ammo ko‘p kishi bu tariqada necha ta’lif qilubturlar va lekin hech kimarsa nazmning tamom fununin berarda jam’ qilmaytur. Va yana bu sababdin rag‘bat havosi g‘olib bo‘lib, havas dilbarini ko‘ngul pardasindin bu tariqa yuz ko‘rguzdikim, nusxa qalamg‘a keltursakim, nasr va nazmning jam’ qavoyid va aqsomig‘a mushtamil bo‘lsa, to har kim balog‘atqa moyil va fasohatqa qobil erur, foyda olsa”⁶⁶.

Chindan ham Nasiriddin Tusiy aruz haqida maxsus “Me’yoru-l-ash’or” kitobini, Rashididdin Vatvot esa ilmi bade’ to‘g‘risida “Hadiqatu-s-sehr” asarini

⁶⁶ Shayx Ahmad ibn Xudoydod Taroziy. Funun ul-balogs‘a. – Toshkent: Xazina, 1996. – B. 31

yozgan edi. Biroq XV asrning o‘rtalarida Vohid Tabriziy “Jam’i muxtasar” degan kitobni yozgan. U bu asarida Sharq she’riyati nazariy masalalaridan aruz, qofiya va ilmi bade’ni yoritgan edi. Vahid Tabriziy Shayx Ahmadga zamondosh bo‘lib, Ozarbayjonda yashagan. Taroziy uning she’rlaridan o‘z asarining badiiy san’atlarga tegishli o‘rinlarida, ayniqsa, aruz qismida bir qancha baytlarni misol qilib ketirgan. Taroziy o‘z kitobini zamon podshosi – Ulug‘bekka bag‘ishlashga qaror qiladi. Asarning kirish qismi Ulug‘bek haqidagi quyidagi ta’rif-tavsif bilan tugallangan: “...saltanat daryosining gavhari va ma’dalat qonining javhari, saxovat boronining abri va shijoat beshasining shohi, shahanshohi a’zam, shahriyori a’lam, sohibus-sayful-kalam, ma’dani lutf-u karam, moliki riqobi umam, farmondehi turk, arab va ajam, mag‘isiddin vad-davron Amir Ulug‘bek Ko‘ragon...”⁶⁷

Biroq Taroziy asari Ulug‘bekka yetib borgan-bormagani ham hozircha bizga qorong‘u. Shayx Ahmad haqida esa tarixiy manbalarda hech qanday ma’lumot saqlanib qolmagan. Asardan anglashiladiki, Shayx Ahmad fors-tojik shoirlari ijodini juda yaxshi bilgan, ular asarlarining eng mukammal va mo‘tabar qo‘lyozma nusxalaridan foydalangan. Turkiydagи she’riy parchalar, ba’zi badiiy san’atlarning misoli uchun keltirilgan bayt-u misralar aksariyat holda Taroziy qalamiga mansub hisoblanadi. Bir so‘z bilan Ahmad Taroziyning “Funun ul-balog‘a” risolasini XV asr adabiyotshunosligi uchun o‘ta ahamiyatli asar deyish mumkin.

Ilmiy tadqiqotimizning “Risolaning shu tipdagi asarlar bilan muqoyasasi” faslida risolaning uchinchi qismi bo‘lmish “Al-fann-us-solis fis-sanoe’-ish-she’r”ni Atoulloh Husayning “Badoe’u-s-sanoe” asari bilan chog‘ishtirishga harakat qildik. Solishtirish jarayonida har ikkala asar mukammal o‘rganilib chiqildi. Va ular orasidagi umumiy munosabat, ularning tutashtiruvchi tomonlari, shuningdek, o‘zaro farqlanishlar va bu haqdagi ma’lum ilmiy xulosalar kelib chiqdi. Quyida shu kabi mulohazalar bayon qilinadi.

⁶⁷ O’sha asar, 33-bet.

Dastlab, Atoulloh Husayniy va uning risolasi haqida ikki og‘iz so‘z: Atoullah Husayniy taxminan XV asrning o‘rtalarida Nishopurda tug‘ilib, 1513-yilning oxirida Mashhadda vafot etgan. U oliv ma’lumotni Hirotda olgan. Navoiy o‘zining “Majolisu-n-nafoyis”ida A. Husayniy haqida shunday deydi: “Mir Atoulloh Nishopurdindur. Andin ilm tahsili uchun shahrg‘a keldi. “Qofiya” va “Mutavassit” o‘qur erdi. Donishmand bo‘lg‘uncha bir nav’ mustahsan maoshqa muvaffaq bo‘ldikim, andin ortuq bo‘lmoq mumkin ermas. Bo vujud - donishmandliq, she’r-u muammo-vu sanoyi’da dag‘i mahorat hosil qildi. Muammog‘a ko‘p mashg‘ul bo‘lur erdi. Halo saboq kasratidin anga avqoti vafo qilmas. Ammo sanoyi’da kitobe tasnif qiliptur “Badoyi”-i Atoiy”ga mavsumdur. Emdi bayozg‘a bordi, ma’lum emaskim, bu fanda hargiz hech kishi oncha jomi’u mufid kitob bitimish bo‘lg‘ay. Bo vujud-i ixtisor, maqlub-i mustaviy san’atidakim, andin mushkilroq san’at bo‘lmas, bu bayt ul risolada aning xossa baytidurkim:

Shakardahano g‘ami nadorid,

Dayro daniy-i mug‘ona darkash.

Aning tab’i diqqatig‘a bu bayt dalil-u bastur. Faqir go‘stoxliq yuzidin Mirg‘a dermenkim, fazoyil-u kamolingizga ko‘ra darveshligingiz ham bo‘lsa erdi. Bilurkim, musallam tutmasa, sobit qilurmen, zarurattin musallam tutar”⁶⁸.

“Badoyi”-i Atoiy”, ya’ni A. Husayniyning “Badoe’u-s-sanoe” asari fors tilida yozilgan bo‘lib, uning bir necha qo‘lyozma nusxasi bor. Risolaning 1974-yilda Dushanbeda “Irfon” nashriyotida Rahim Musulmonqulov tayyorlagan tojikcha nashri ham mavjud. Bu asar o‘zbek tiliga tarjima qilingan bo‘lib, bu ishni adabiyotshunos Alibek Rustamov amalga oshirgan. Shu tarjima asosida asar 1981-yilda o‘zbek tilida nashr etilgan.

Asar an’anaviy hamd va na’t qismlari bilan boshlanadi. So‘ng muqaddima keladi. U hammasi bo‘lib yetti bo‘limdan iborat. Dastlabki uch bo‘lim hamd, na’t,

⁶⁸ Husayniy Atoulloh. Badoe’u-s-sanoe’. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1981. – B. 3

muqaddimadan tashqari aruz ilmiga bag‘ishlangan. To‘rtinchi bo‘limdan to kitob oxiriga qadar she’riy san’atlar to‘g‘risida gapiriladi. Muallif har bir badiiy tasvir vositasi haqida alohida maxsus to‘xtalishga, ularning har qaysisini ilmiy izohlashga urinadi.

“Funun ul-balogs‘a” va “Badoe'u-s-sanoe” risolalaridagi badiiy san’atlarni quyidagicha qiyoslashga, ular orasidagi o‘xhash va farqli jihatlarni aniqlashga harakat qildik. Bu jihatlarni shartli raqamlashga urindik:

I. Avvalo, asarlarning tili va uslubidagi farqlar: “Funun ul-balogs‘a” turkiy tilda va turkona uslubda yaratilagan. “Badoe'u-s-sanoe” esa forsiyda bitilgan. Bu borada Taroziy ilk tajribaga qo‘l urgani ma’lum. Tan olish kerakki, til xususiyatlari haqida gap ketar ekan har ikkala asarning o‘ziga xos ustunliklari mavjud. Badiiy san’atlar izohi, ularning ta’riflari “Badoe'u-s-sanoe”da mukammalroq va to‘liqroq. Ya’ni muallif biror san’at haqida gapi rayotganda birligina ta’rif bilan cheklanib qolmaydi. Shu san’at to‘g‘risida o‘z bilganlarini bayon qilgandan so‘ng o‘zidan oldin yaratilgan asarlarning bu boradagi ma’lumotlarini ham izchil ifoda qiladi. Xusan, izohlarda “Tibyon”, “Muxtasar” (Allomayi Taftazoniy), Shamsi Qays Roziy, Rashididdin Vatvot ilmiy manbalaridan ko‘lamli foydalanilgan. Ta’riflardan keyin misollar va oxirida san’at nomi bo‘lgan so‘zning lug‘atdagi asl ma’nosi aytildi. Barcha misollar faqat forsiyda keltiriladi va misol o‘rnida A. Husayniy forsiydagi baytlardangina foydalanadi.

“Funun ul-balogs‘a”da esa bu tartib boshqacharoq. Unda biror san’at haqida aytalganda avval turkiyda bir bayt beriladi. Bu bayt aksariyat holatda Taroziyning o‘z qalamiga mansub bo‘lib, quyida nomi zikr etilajak san’at uchun misol sanaladi. Shundan so‘ng muallif izohi keltiriladi. Ta’riflar deyarli muallifning o‘z tilidan aytildi. Bir-ikki holatlardagina Taroziy boshqa manbalarga murojaat qiladi. Har bir san’at izohidan keyin birinchi bo‘lib turkiy misol beriladi. Undan so‘ng o‘rnini bilan forsiy va arabiylar keltiriladi. Albatta, bu barcha san’atlar uchun qat’iy qolip emas. San’at nomi bo‘lgan so‘zning lug‘aviy ma’nosi berilishi ham barcha

badiiy san'atlarga taaluqli emas. Biroq misollar borasida Shayx Ahmad risolasi ancha ustunlikka ega. Boisiki, unda misollar uch tilda ifodalangan o‘rinlar talaygina. Ya’ni turkiy, forsiy va arabiylardan. To‘g‘ri, arab tilidagi misollar juda ko‘p emas, biroq buning ham asosli sababi bor. Chunki muallif izohlagan ba’zi san’atlar so‘f turkona va shu ma’noda arab abyotida ularga misol keltirish mumkin emas. Turkiy va forsiy misollar faqat bayt shaklida bo‘lsa, arab tilidagi misollar aksariyat nasriydadir. “Va ba’zi yerda “Kalomi majid”tin va Rasul alayhissalom hadisidin naql qilduq”⁶⁹. Tarse’ san’atiga berilgan misollarni ko‘rish mumkin: ““Kalomi majid” va “Furqoni hamid”ta kelibtur:

“Innal-abrora lafi na’im

Va innal-fujjora lafi jahim”.

/Yaxshilar jannatiydurlar, buzuqlar do‘zaxiy/

Misoli digar. Rasul alayhissalom:

“Man a’to’a g‘azabahu azoa adbahu”

/G‘azabiga itoat qilgan kishi adabini zoe’ qilibdi/ ^{“70}

II. Risolalarning tarkibi, miqdor va hajmidagi farqlanishlar: “Funun ul-baloga”ning uchinchi bobo ilmi bade’ga bag‘ishlangan bo‘lib, u “Al-fann-us-solis fis-sanoe’-ish-she’r” deb nomlanadi. “Badoe’u-s-sanoe”ning esa bir qismigina aruz ilmiga atalgan bo‘lib, qolgan to‘rt bob to‘laligicha she’riy san’atlar izohiga bag‘ishlangan. Buni asarlar nomida ham ko‘rish mumkin: “Funun ul-baloga” “balog‘at ilmlari” demakdir va unda mumtoz adabiyotshunoslikka oid barcha ma’lumotlar jamlangan. Jumladan, she’r nav’lari ham, qofiya va radif ilmi ham, aruz saboqlari ham o‘rin olgan. “Badoe’u-s-sanoe” “san’at yangiliklari” demakdir va bu asar 80 foiz miqdorda she’riy san’atlarga bag‘ishlagan.

⁶⁹ Shayx Ahmad ibn Xudoydod Taroziy. Funun ul-baloga. – Toshkent: Xazina, 1996. – B. 84

⁷⁰ O’sha asar, 85-bet.

“Funun ul-balogs‘a”da 97 she’riy san’at haqida ma’lumot beriladi. Bob mundarijasida 97 san`at turi sanaladi, izohda esa 94 ta. Tushirib qoldirilganlari 3 san`atgina bo`lib qolmay, mundarija va izohda yana bir necha nomutanosibliklar ko`rinadi: tafsir ul-jalo, tafsir ul-xafo, at-tarzeh san`atlari bob avvalida aytilib, bob ichida umuman tilga olinmaydi. Sahli mumtane, nomutanohiy kabilar esa bob ichida ko`rsatiladi-yu, avvalida tilga olinmaydi. Ahmad Taroziy badiiy sana’atlarni lafziy, ma’naviy turlarga ajratmaydi. 90 dan ortiq tasvir vositalari alifbo tarzida izohlanaveradi. Biz yuqoridagi 94 san’at turini shartli ravishda lafziy va ma’naviy guruhlarga ajratishga harakat qildik. Agar biz ba’zi she’riy san’atlarning ichki turlarini hisobga olmasak, risolada 64 badiiy san’at turi borligi ayon bo‘ladi. Shundan 25 tasi lafziy va 39 tasi ma’naviy san’atlardir. Quyida ularning nomlari keltiriladi:

1. Lafziy san’atlar: tarse’, at-tajnisot, at-tarse’u maat-tajnis, at-tas’hif, al-e’not, al-ishtiqoq, al-maqlubot, al-mutalavvin, al-mutasalsal, al-mutazalzil, al-mukarrar, al-mukarrari qabih, al-muvassal, al-muqatta’, al-mushajjar, al-murabba’, al-mulamma’, al-mujarrad, al-muvashshah, ar-raqto, ar-radd-ul-matla’, radd-ul-ajz alas sadr, al-radd v-al-aks, al-hashviyot, al-ishjo’, as-sehr-ul-hilol.
2. Ma’naviy san’atlar: at-tashbehot, al-ihom- ut-tom, al-ishkol, al-ibdo, al-irsoul masal, al-irsoul-masalayn, al-ig‘roq fis san’at, al-iltifot, al-intiboh, al-iqtibos, al-istifhom, al-istidlol, al-istidrok, al-istiora, al-muammo, al-mutazod, al-murootunnazir, al-mutanosib, al-mutarodif, al-muhtamilu li-ziddayn, al-muvajjih, al-mug‘olata, al-lug‘z, al-baroati istihlol, al-laff v-an-nashr, mushavvash, as-syoq-ul-e’dod, as-savol-ul-javob, al-jam’-ul-mufrad, at-ta’rif-ul-mufrad, at-taqsim-ul-mufrad, al-jam’maat-tafriq, al-jam’-ul-maat-taqsim, al-jam’ maat-tafriq at-taqsim, al-kalom-ul-jome’ al-husn-ul-matla’, al-husn-ul-taxallus, al-husn-ut-ta’lil, al-husn-ul-talab, al-husn-ul-maqta.

“Badoe’u-s-sanoe”da she’riy san’atlar miqdori “Funun ul-balogs‘a”dagiga qaraganda ko‘proqni tashkil etadi. Unda jami 173 badiiy san’at haqida ma’lumot

beriladi. Ammo bu hisobda ham o‘ziga xosliklar mavjud bo‘lib, ba’zi san’atlar ichki turlariga ega va shuning hisobiga barchasi 173 tani tashkil qiladi. Shunga ko‘ra Atoulloh Husayniy asari hajman kengroq hisoblanadi. Taroziy talqinidan farqli Atoulloh Husayniy badiiy san’atlarni lafziy, ma’naviy turlarga ajratadi. Boblarni quyidagicha nomlaydi: “Lafziy go‘zalliklar o‘shul hukmdag‘i va xat suvratig‘a taalluqlug‘ go‘zalliklar bayonida”, “Ma’naviy go‘zalliklar bayonida”, “Ma’naviy go‘zalliklarning ikkinchi nav’i”, “Arab fusahosi kalom go‘zalliklaridan hisoblamagan, nom qo‘ymag‘an va ajam shuarosi ul jumladin hisoblag‘an nimalar bayonida”, “Lafziy-u ma’naviy go‘zalliklar, ya’ni ul go‘zalliklar bayonidakim, so‘zda alarming yig‘indisi husng‘a bois bo‘lur, garchi husndorliq bu ikkovining birida ikkinchisig‘a nisbatan ko‘proq bo‘lsa ham”, “Ma’nog‘a taqalg‘uchi ayblar”, “Shuaro orasinda amalda bo‘lg‘an bayong‘a muhtoj bo‘lg‘on ba’zi alfoz bayonida”. Badiiy san’atlarning bu kabi mukammal va izchil guruhlarga ajratilishi o‘quvchiga talay qulayliklarni tug‘diradi. Shunisi e’tiborliki, “Badoe’u-s-sanoe”da ham guruhlararo arab alifbosi tartibi saqlangan. Bundan tashqari, har ikkala risola ham bir xil san’at izohi bilan boshlanadi. Faqat nomlanishda biroz farq bor: “Funun ul-balogs‘a”da “tarse”, “Badoe’u-s-sanoe”da esa “tarsi”. Yakunida ham o‘xshashlik bor: “Funun ul-balogs‘a”dagi san’atlar “sahli mumtane”, “nomutanohiy” bilan tugallanadi, “Badoe’u-s-sanoe” esa “irtihol”, “sahl-i mumtani” bilan yakunlanadi. Ayniqsa, oxirgi boblar o‘zaro yaqin bo‘lib, ularda har ikkala muallif mustaqil she’riy san’at hisoblanmasa-da, el ichida mashhur bo‘lgan ba’zi shakllar to‘g‘risida ma’lumot beriladi. Qolgan san’atlarga qaraganda bu shakllarning izoh va misollari ham o‘ta ixcham ko‘rinishga egadir. Shayx Taroziy ularga shunday izoh beradi: “Bilkim, muncha sano’ekim, zikr qiduk, barchasi asl /ahli/ bade’ qoshinda mashhur va mo‘tabardur va mundun boshqa bir necha san’atkim, mutaaxxirlar qoshinda urf bo‘lur erdi, oni taqi bayon qiloli, to she’rning hech daqiqasi bu nusxdin muhmal qolmag‘ay”. Atoulloh Husayniy esa ularga ta’rifni bob nomi bilan cheklanadi xolos: “Shuaro orasinda amalda bo‘lg‘an

bayong‘a muhtoj bo‘lg‘on ba’zi alfoz bayonida”⁷¹. Har ikkala risoladagi bu alfozlarni shartli ravishda quyidagicha jadvallashtirishga harakat qildik:

“Funun ul-balogs‘a”da:	“Badoe’u-s-sanoe”da:
1. Badeha	1. Tashbib
2. Nazar	2. Nasib
3. Solis	3. G‘azal
4. G‘azal	4. Musarra’
5. Sahli mumtane’	5. Muzdavaj
6. Nomutanohiy	6. Muqaffo
	7. Mujamma’
	8. Baytu-l-qasida
	9. Matbu’
	10. Mutakallaf
	11. Xasiy
	12. Jazolat
	13. Salosat
	14. Irtihol
	15. Sahl-i-mumtani’

⁷¹ Husayniy Atoulloh. Badoe’u-s-sanoe’. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1981. – B. 270

Ko‘rinadiki, ulardan faqat ikki shaklgina ikkala asar uchun mushtarak. Ya’ni g‘azal va sahli umumtane’ shakllari. Qolganlari esa butunlay farqlanuvchi hodisalardir. Buning sababi ikki asarning ikki tilga mansubligidadir. Chunki bu qismda mualliflar jonli xalq tilida mavjud bo‘lgan, mashhur bo‘lgan alfozlar haqida ma’lumot beradi. Shu ma’noda Shayx Ahmad turkiy xalq orasidagi shakllar, Atoulloh Husayniy esa fors xalqi aro mavjud shakllar to‘g‘risida aytib o‘tadi.

III. Risolalardagi badiiy san’atlarning nomlanishlari va izohlaridagi o‘xhash va farqli tomonlar:

“Funun ul-balogs‘a” va “Badoe’u-s-sanoe” asarlaridagi she’riy san’atlar orasida ba’zi o‘xhash, farqlanuvchi tomonlarni, ba’zan esa butunlay noo‘xhash jihatlarni uchratdik. Ular quyidagilar:

1. *Tajnis* san’ati har ikkala risolada tartib bo‘yicha ikkinchi tasvir vositasidir. Taroziy at-tajnisot, A. Husayniy tajnis deb nomlaydi. Biroq “Funun ul-balogs‘a” da tajnisning yetti turi haqida aytiladi, “Badoe’u-s-sanoe” da tajnis lafziy va g‘ayrilafziy gurularga ajratilgan bo‘lib, barchasi to‘qqizta:

“Funun ul-balogs‘a” da tajnis turlari:	“Badoe’u-s-sanoe”da tajnis turlari:
1. Tajnisi tom	Tajnis-i tom (tajnis-i tasrih)
2. Al-tajnisuz-zoyid	Tajnis-i noqis (tajnis-i muharraf)
3. Al-tajnis-un-noqis	Tajnis-i muzayyal (tajnis-i zoyil)
4. Al-tajnis-ul-murakkab	Tajnis-i muzori’(tajnis-i mutarraf)
5. Al-tajnis-ul-mukarrar	Tajnis-i lohiq
6. Al-tajnis-ul-mutarraf	Tajnis-i aks

7. Al-tajnis-ul-xat	Tajnis-i murakkab
	Tajnis-i xattiy
	Tajnis-i mushavash

Ko‘rinadiki, ayrim turlar nomlanishidagina farqlanadi, ayrimlari esa nom bilan birga izohda ham ikki xil. Albatta, ikkinchi risolada tur va izohlar kengroq va batafsilroq. Biroq Taroziy misollarni uch tilda: turkiy, forsiy va arabiylardan. A. Husayniy esa faqat forsiy baytlar berish bilan cheklandi.

2. “Funun ul-balogs‘a”da *at-tas‘hif* degan san’at uchraydi. U haqida hozirgi manbalarda ma’lumot uchramaydi. Biroq bu san’at “Badoe’u-s-sanoe”⁷²dagi *tajnis-i xattiy* bilan deyarli bir xil. Taroziy at-tas‘hifni shunday izohlaydi: “Bu san’at ul bo‘lurkim, bir lafzining nuqtasin taqdim va ta’xzir qilsa, o‘zga ma’no hosil bo‘lur:

“Bodi jinoni, joni *bahori*,

Obi naboti, chand *qarori*.

Misoli Rashid aytur:

Man go‘ri turo nayoram, ey xoja, ba nasr,

Tu niz baroyi mo bari bar sari kasr⁷².

Bu san’at go‘yo misralarda *paronim* so‘zlarni qo‘llashga o‘xshaydi.

Endi “Badoe’u-s-sanoe”⁷²dagi tajnis-i xattiy haqida. Mullif izohi: “Ani muzora‘a, mushokala ham derlar. Bu talaffuzda turlicha lafzlarning yozuvda bir-biriga o‘xhash bo‘lmog‘idir:

Qaviy gasht durus ba diydor-i shoh,

Chunon *siyoh*-u chunon *sipoh*⁷³.

⁷² Shayx Ahmad ibn Xudoydod Taroziy. Funun ul-balogs‘a. – Toshkent: Xazina, 1996. – B. 93

Bunda ham o'sha hodisa haqida aytilmoqda. Faqat birinchi risolada u mustaqil she'riy san'at, ikkinchisida esa tajnisning bir ko'rinishi sifatida berilgan

3. *Al-e 'not* san'ati har ikki asarda mavjud. Lekin, nazarimizda, bir nom ostida boshqa-boshqa tasvir vositalari haqida aytilgan. Dastlab, "Funun ul-balogs'a" dagi e'not haqida: *Al-e'not* – "Bu san'at aningtek bo'lurkim, she'r ichinda bir lafze takror qilurlar, har birini bir vajh va xayol qilurlar:

Jon fido *qil*, ey ko'ngul, beqol-u *qil*,

Yor uchun *qilsang* bu ishni ne baror.

Mutribo, qavlungni *qil qil* birla rost,

"Qol" agar "*qil*" birla bo'lsa, *qil* baror"⁷⁴.

She'rda takrorlangan so'zlarning har biri mustaqil ma'noda qo'llanmoqda. Endi "Badoe'u-s-sanoe'" dagi e'not haqida: "Ani tayziq, tashdid va iltizom-i luzum mo lo yalzam ham derlar. Oxirgi nomi eng mashhuridur. Alloma deptur: ul andin iboratturkim, so'zlaguchi saj' yoki qofiyada raviy harfidin oldin berilmagi shart bo'limgan bir yoki bir necha maxsus harakat yo muayyan harf kelturur:

Hargiz nabuvad dame huzuru *tarabam*,

Har lahza shaved ziyoda ranj-u *ta'abam*,

Har dam alame digar rasad *besasabam*,

Alqissa, man va toli'-i xud dar *ajabam*."⁷⁵

E'tiborlisi, Taroziy izoh so'nggida "Badoe'u-s-sanoe'" dagiga monand fikrni ham aytadi: "Va ba'zining qoshida e'not ul bo'lurkim, qofiyaning arosinda bir harfini

⁷³ Husayniy Atoulloh. Badoe'u-s-sanoe'. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1981. – B.

48

⁷⁴ O'sha asar, 100-bet.

⁷⁵ Husayniy Atoulloh. Badoe'u-s-sanoe'. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1981. – B. 102

rioyat qilurlar. Munung yaxshi sharhini qofiya bahsinda kelturubbiz. Va buni “luzumi mo lo yalzamu” taqi derlar:

Xidmatinda, ey ko‘ngul, naydek *kamar* –

Bag‘log‘il mahkamki, topqaysen *samar*”⁷⁶.

Ammo A. Husayniy talqinida e’notning faqat qofiya san’ati bilan bog‘liq ko‘rinishi to‘g‘risida ma’lumot beriladi.

4. *Laff-u nashr* san‘ati ham har ikkala risolada uchraydi. Taroziy uni al-laff v-an-nashr deb nomlasa, A. Husayniy laff-u nashr deb ataydi. Biroq “Funun ul-balogs‘a”da Mushavvah degan san‘at ham uchraydiki, u go‘yo laff va nashrning tartibsiz ko‘rinishi. Mushavvahni muallif bir o‘rinda laff va nashrning ikkinchi nav‘i deydi. 2-risolada esa mushavvah nomi uchramaydi, ammo muallif laff-u nashrni ikki turga ajratadi: tartibli va tartibsiz laff-u nashrlar. Va bundagi “tartibi laffning aksi” mushavvahga yaqin turadi. “Funun ul-balogs‘a”dagi mushavvah, ya’ni tartibsiz laff-u nashrning misolini tahlil qilishga harakat qildik:

Zi savdoyi ruxu zulfash g‘ame doram shabo ro‘ze,

Maro subhi visoli u namegardad shabi ro‘ze.

(Yuz-u sochining savdosidan kecha-yu kunduz g‘amdamen,

Uning visolining tongi menga kecha-yu kunduz yetib kelmaydi.)

1-misrada yuz va soch so‘zlari keltirilgan. Bilamizki, mumtoz she‘riyatda yuzning yorug‘ligi kunduzga, sochning qoraligi esa kechaga qiyoslanadi. 2-misrada kecha va kunduz so‘zlari ketma-ket qo‘llangan. Baytda yuz va soch kecha va kunduzga to‘g‘ri kelmoqda.

5. “Funun ul-balogs‘a” asaridagi ma’naviy san’atlar orasida *al-murootun-nazir* va *al-mutanosib* san’atlari mavjud bo‘lib, ular izohda ham ketma-ket keltiriladi. Bu

⁷⁶ Shayx Ahmad ibn Xudoydod Taroziy. Funun ul-balogs‘a. – Toshkent: Xazina, 1996. – B. 101

san'atlarning mohiyati ham o'zaro yaqin. Ammo har ikkisi alohida mustaqil ifodalangan. "Badoe'u-s-sanoe""da ham muroatu-n-nazir degan san'at turi bor bo'lib, buning yakka o'zi yuqoridagi ikki san'atni qamrab olgan. Ya'ni Taroziy risolasidagi ikki san'at (al-murootun-nazir va al-mutanosib) A. Husayniy risolasidagi bir san'atga (muroatu-n-nazir) to'g'ri kelmoqda. Mualliflar izohini ko'ramiz:

"Funun ul-balogs'a"da: Al-murootun-nazir – "Ul bo'lurkim, she'r ichinda norasolarning rioyatin qilurlarkim, biri birining naziri bo'lg'ay, netokkim: chang va ud va rubob:

To g'amming changinda kuydi xasta ko'nglum udtek,

Nola-u zor ingramakni mendin o'rgandi rubob"⁷⁷.

Al-mutanosib – "Bu ul o'lurkim, ikki narsani zikr qilurlarkim, birisi bir nimaning zoti bo'lg'ay va birisi ul zotning sifati yo xosiyati va yo holati bo'lg'ay, netokkim: zarra va mehr:

Ko'nguldin zarra mehring bo'limg'ay kam,

Agar o'lsam, taqi bo'lsa tanim xok"⁷⁸.

Ko'rindiki, bu ikkisi ba'zi kichik farqlanishlarni hisobga olmaganda mazmunan juda yaqin. Endi "Badoe'u-s-sanoe""da muroatun-n-nazir haqida: "Ani tanosub, tavfiq, iytifof va talfiq ham derlar. Ul andog'durkim, kalomda anga munosib hodisa va nimalarni jam' qilurlar (ammo tazod yo'li bila ermas, chunki tazod, ya'ni taqobul munosabatning bir nav'idur). Bu san'attin xoliy she'r kam bo'lur. Ammo mutanosib nimalarning ko'p-ozlig'i va tanosubning kuchlug-kuchsizligi jihatidin husni darajasi turlichadur. Iytifof bir-biriga ulfat bo'lmog'-u qo'shulmoqtur, talfiq birga keltirmaktur va atash vajhi zohirdur.

Misol:

⁷⁷ O'sha asar, 113-bet.

⁷⁸ O'sha asar, 113-bet.

Shud umr ba mantiq talaf-u in hikmat
Ma'lumam shud zi ba'd-i chandin zahmat,
Ka-z bahs muarraf nashavad kasb-i najot,
Foiz nashavad zi bahs hujjat-i rahmat”⁷⁹.

Ruboiy tarjimasi:

Umr mantiq-u hikmat bilan talaf bo'ldi, ancha zahmatdan so'ng menga ma'lum bo'ldiki, bahs bilan najot topib bo'lmas ekan, bahsdan rahmat hujjati ham ortmas ekan. (tarjimon A. Rustamov)

Xullas, muroatun-n-nazir san'ati bir vaqtning o'zida “Funun ul-balogs'a”dagi ikki san'atni (al-murootun-nazir va al-mutanosib san'atlarini) qamrab olgan.

Bundan tashqari risolalardagi badiiy san'atlar o'rtasida yana o'ziga xos farqli o'rinalar ham mavjud bo'lib, ular quyidagicha turli ko'rinishlarga ega:

Risolalarda ayrim san'atlarning ma'nosi bir xil-u, ammo nomlanishi o'zgacha yoki buning aksi:

1. “Funun ul-balogs'a”da *al-muvashshah* – “Badoe'u-s-sanoe”da *tavshih*, izohda 1 xil;
2. “Funun ul-balogs'a”da *al-muvajjah* – “Badoe'u-s-sanoe”da *mujovaza*, izohda 1 xil;
3. “Funun ul-balogs'a”da *al-mujarrad* – “Badoe'u-s-sanoe”da *tajrid*, ln izohda butunlay boshqa-boshqa san'atlar.

Endi shular haqida batafsilroq fikr yuritishga harakat qilamiz:

“Funun ul-balogs'a”dagi *al-muvashshah* va “Badoe'u-s-sanoe”dagi *tavshih* san'atlari to'g'risida. Taroziy izohi: “Bu san'at ul bo'lurkim, she'rning avvalgi

⁷⁹ Husayniy Atoulloh. Badoe'u-s-sanoe'. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1981. – B. 232-233

harflarini terib olsalar yo o‘rtarog‘i harflarini jam’ qilsalar, Mirak bo‘lur. Muning bir misraning harflarini olsalar, “Muhammad” bo‘lur.

Ma’shuqa dilam ba tiri anduh naxust,

Miskin dili man ba poyi mehnat shuda.

Hayron shudamu kasam namegirad dast,

Dasti g‘ami do‘st pushti man xirad shikast”⁸⁰.

Lekin bunda harflar aro tartibsizlikka yo‘l qo‘yilgan. Balki, bu kotibning yoki noshirlarning xatosidir.

Atoulloh Husayniy izohi: “Tavshih ajam shuarosi nazdida andin iboratturkim, shoир misra yoki baytlarning boshida yo alarming o‘rtasida bir necha harf yoki bir necha so‘z keltirurkim, ul harf yoki so‘zlarni jam’ qilinsa, bir ism yo bir laqab, yo bir misra yo bir bayt bo‘lur yoki anga o‘xhash bir nima hosil bo‘lur va bu san’atni o‘z ichiga olgan she’rni muvashshah derlar”⁸¹. Ko‘rinadiki, izohlar deyarli bir xil. Biroq san’at nomini Shayx Taroziy al-muvashshah deb atasa, Atoulloh Husayniy tavshih deydi va muvashshah istilohini tavshihda yozilgan she’rga nisbatan qo‘llaydi.

“Funun ul-balogs‘a”dagi *al-muvajjah* va “Badoe’u-s-sanoe”[”]dagi *mujovaza* san’atlari. Bu san’atlarning garchand nomlanishlarida farqlilik bo‘lsa ham, ularning mohiyati va berilgan izohlar deyarli o‘xhashdir. Birinchi asardagi ta’rif va misol: Muallif izohi: “Al-muvajjah-bu san’at aningtek bo‘lurkim, mahbubni yo mamduhni bir tariqa sifat birla zikr qilib, yana bir turluk sifatini anga tamsil qilurlar”. Bu san’at go‘yo tamsil (misol keltirish) san’atiga o‘xhash. Biroq tamsilda birinchi misrada yorning biror ta’rifi yoki sifati haqida aytilib, ikkinchi misrada shu sifatga doir tabiatdan biror misol keltiriladi. Al-muvajjahda esa ikkinchi misradagi misol ham birinchi misraga tayanadi, ya’ni yorning yana

⁸⁰ Shayx Ahmad ibn Xudoydod Taroziy. Funun ul-balogs‘a. – Toshkent: Xazina, 1996. – B. 125

⁸¹ Husayniy Atoulloh. Badoe’u-s-sanoe’. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1981. – B. 84

boshqa bir sifati tamsil qilinadi, borliqdan misol keltirilmaydi. Taroziy o‘z ijodidan Al-muvajjahga misol keltiradi:

“Har lahza xasta jonima g‘amzang balo qilur,

Andog‘ki bu ko‘ngulni qoshiq mubtalo qilur”⁸².

Birinchi misrada oshiq yorning ishvali qarashlarini xasta joniga balo deb atab, ikkinchi misrada fikrini dalillash uchun yorning qoshini tamsil qilmoqda. Bu ma’naviy san’at ham zamonaviy she’rshunoslikda uchramaydi. Endi ikkinchi asardagi ta’rif va misol: “Mujovaza uldurkim, kalomda shart va jazoda (shart - ergash gap, jazo – bosh gap) voqi’ bo‘lgan ikki ma’noni biriga tirkalgan bir nimani ikkinchisiga ham tirkab, bir-ririga o‘xshash qilurlar. Mujovaza lug‘atda juftlashmoqtur. Atash vajhi uldurkim, shart bila jazo bir nimaning alarga tirkalmagida bir-biriga o‘xshag‘anda go‘yo juftlashgandek bo‘lur.

Misol:

Chun ravam nazlik-i on mah, to shaved zohir vafo,

Ro‘y-i xud az man bitobad, to shaved zohir jafo”⁸³.

Baytning tarjimasi: Ul oy yaqiniga borganimda vafo zohir bo‘lsin deb, yuzini mendan o‘giradi, jafo zohir bo‘lsin deb. E’tiborlisi shundaki, “Funun ul-balogs‘a”dagi al-muvajjah va “Badoe’u-s-sanoe””dagi mujovaza san’atlarining har ikkalasi ham bugungi nazariy manbalarda qayd etilmaydi.

“Funun ul-balogs‘a”dagi *al-mujarrad* va “Badoe’u-s-sanoe””dagi *tajrid* san’atlarining nomlanishlarida aynan bir xillik bo‘lmasada, yaqinlik bor, ln izohda butunlay boshqa-boshqa san’atlar haqida ma’lumot beriladi. “Funun ul-balogs‘a”dagi al-mujarrad haqida. Muallif izohi: “Bu san’at aningtek bo‘lurkim,

⁸² Shayx Ahmad ibn Xudoydod Taroziy. Funun ul-balogs‘a. – Toshkent: Xazina, 1996. – B. 119

⁸³ Husayniy Atoulloh. Badoe’u-s-sanoe’. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1981. – B. 242

she’rni bir harfdin tahrir qilularkim, ul harf so‘z ichinda ko‘prak voqe’ bo‘lur, netokkim bu baytni “alif”tin tahrir qilibtur:

Ko‘zung har dam qilur ko‘nglumni mahrum,

So‘zung har lahza aqlimni mushavvash.

Va bu san’atni hazf taqi o‘qurlar. Oyati “Kalom”din “Olihakum olihun vohidun. Lo iloha illa huva”. Va bu nuqtalik harftin mujarradtur”⁸⁴.

Endi “Badoe’u-s-sanoe”dagi tajrid san’ati to‘g‘risida. Muallif izohi: “Tajrid uldurkim, bir sifat bila sifatlanmish bir nimadin ul sifat yetukligining mubolag‘asi uchun aningdek o‘shul sifat bila sifatlanmish bir nimani chiqarurlarkim, go‘yo ul sifatlanmish ul sifat bila andoq bo‘lupturkim... Tajrid lug‘atta tanni yalang‘och qilmoqtur. Bir sifat bila sifatlanmishtin anga o‘xhash o‘zga bir sifatlanmishni chiqarurda go‘yo ul birinchi sifatlanmish ikkinchi sifatlanmishning anga kiydirilg‘an libosidekturkim, ani mundin chiqarmoqni tajrid depturlar.

Misol:

Ba sahro bahr-i gul raftand murg‘onaz chaman berun,

Chiro, ey jon, nameoyiy tu az zindon-i tan berun?

Baytning tarjimasi:

Qushlar gul uchun chamandan chiqib dalaga ketdilar,

E jon, sen nega tan zindonidin tashqariga chiqmaysan?”⁸⁵

Xullas, al-mujarrad va tajrid san’atlari nomlanishi jihatidan o‘zaro yaqin bo‘lsa-da, mohiyatan bir-biridan butunlay farqlanuvchi badiiy san’atlardir. Bundan tashqari, “Funun ul-balogs‘a”dagi al-mujarrad lafziy san’at hisoblansa, “Badoe’u-s-sanoe”dagi tajridni A. Husayniy “lafziy-u ma’naviy go‘zalliklar” guruhiga kiritgan.

⁸⁴ Shayx Ahmad ibn Xudoydod Taroziy. Funun ul-balogs‘a. – Toshkent: Xazina, 1996. – B. 124

⁸⁵ Husayniy Atoullo. Badoe’u-s-sanoe’. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1981. – B. 181

E’tiborlisi shuki, ularning har ikkisi ham zamonaviy adabiyot nazariyasiga doir kitoblarda deyarli uchramaydi. Aniqrog‘i mazmunan uchramaydi. Boisi adabiyotshunos Anvar Hojiahmedovning “Mumtoz badiiyat lug‘ati” kitobida ham tajrid nomli ma’naviy san’at turi mavjud. Biroq bu san’at yuqoridagi ikki risoladagidan ham farqlidir. “Tajrid arab tilida “ajratish”, “yakkalash” ma’nolarini ifodalab, adabiyotshunoslikda shoirning o‘ziga boshqa bir shaxs kabi murojaat etish usulini bildiradi.

Masalan:

...Ul ko‘zi jallodni sevdung haddingni bilmayin,

Ey Gado, vallahkim, o‘z bo‘ynungdadur qoning sening.

...Ko‘p qilma aning javridin, ey Lutfiy, shikoyat,

Kim husn elining shevasi payvasta jafodur”⁸⁶.

Demak, mumtoz adabiyotshunosligimizda bir nom ostida uch badiiy san’at mavjud ekaniga guvoh bo‘ldik.

Risolalardagi *al-mulamma'* san’ati haqida ham biroz e’tiborli nuqta bor. Al-mulamma’ she’riy san’atining har ikkala risolada nomlanishi ham, izohlanishi ham deyarli bir xil: “Funun ul-balogs‘a”dagi al-mulamma’ – “Bu san’at aningtek bo‘lurkim, she’re ayturlarkim, bir misrai bir til birla bo‘lur, bir misrai yana bir til birla.

Misol:

Ba xudoki, xastalarg‘a yuzungiz g‘amidin o‘lmak,

Du hazor bora xushtar zi hayoti jovidoni”⁸⁷.

⁸⁶ Hojiahmedov A. Mumtoz badiiyat lug‘ati. – Toshkent: Yangi asr avlod, 2008. – B. 121

⁸⁷ Shayx Ahmad ibn Xudoydod Taroziy. Funun ul-balogs‘a. – Toshkent: Xazina, 1996. – B. 123

“Badoe’u-s-sanoe””dagi mulamma’: “Andin iboratturkim, she’rning bir qismi bir tilde va boshqa bir qismi o‘zga tilda bo‘lur. Bu san’atning mashhuri uldurkim, bir misrai forscha yoki bir bayt arabcha va bir bayt forscha bo‘lur. Rashid-i Vatvot depturkim, mundin ortiq o‘n bayt arabcha va o‘n bayt forscha bo‘lmog‘I ravodur, mundin orsa, bo‘lmas. Talmi’ lug‘atta rang-barang qilmoqtur. Atash vajhi zohirdur.

Misol:

Sohibu-r-roh mina-r-rahmati qad nodoniy

Ki, biyo jonibi mayxona, chi sargardoni?

Baytning tarjimasi:

May sohibi marhamat qilib meni chaqirdi:

Mayxona tomonga kel, nega sargardonsan?”⁸⁸

Xullas, mulamma’ san’ati har ikkalasida ham shaklan, ham mazmunan deyarli bir xil. Biroq *shir-u shakar* istilohi hech birida uchramaydi. Balki, bu nomlanish XV asrdan keyingi davrlarda yuzaga kelgandir.

Risolalardagi *al-murabba'* san’ati haqida. Murabba’ so‘zining asl ma’nosi geometrik shakl kvadratga to‘g‘ri keladi. Zamonaviy she'rshunoslikda murabba’ deganda 4 misrada iborat she'r tushuniladi. Xususan, A. Hojiahmedovning “Mumtoz badiiyat lug‘ati” kitobida ham she'r shakli sifatida qaralgan: “Murabba’ (arabcha “to‘rtlik” degani) har bandi to‘rt misradan tashkil topgan sheriyl shaklning nomi sanaladi. Aksariyat murabba'larning birinchi bandidagi barcha misralar qofiyalanib, keyingi bandlarda oldingi uch misra mustaqil qofiyaga ega bo‘ladi, to‘rtinchi misralar esa birinchi band bilan qofiyadosh bo‘lib keladi. Bandlarning bu xil qofiyalanishi xususiyatini a a a a, b b

⁸⁸ Husayniy Atoulloh. Badoe’u-s-sanoe’. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1981. – B. 92

b a, v v v a va h.k. tarzida ifodalash mumkin”⁸⁹. Bu badiiy san’at emas, balki she’r turlaridan biridir. Ammo mumtoz poetikada murabba’ mustaqil badiiy tasvir vositasi hisoblangan. Xususan, biz o’rganayotgan ikki risolada. Atoulloh Husayniy risolasida murabba’ga shunday ta’rif beriladi: “Murabba’ andin iboratturkim, to‘rt misra yoki to‘rt bayt aytilur, yozilganda ham bo‘yiga, ham eniga o‘qisa bo‘lur”. Ta’rifdan anglashiladiki, murabba’ muvashshahga biroz o‘xhash yoki uning bir turidek. Adabiyotshunos A. Rustamov Shamsiddin Qays Roziyning “Al-mo‘jam” asaridan shunga yaqin dalil keltiradi: “Shams-i Qays murabba’ va aning o‘xhashlarin muvashshahqa kiritiptur va deptur: (uldurkim) katak shaklig‘a andoq solurlarkim, ani ham bo‘yig‘a, ham enig‘a o‘qusa bo‘lur. Ani muzalla’ derlar”. Murabba’ “Funun ul-balogs” da ham alohida lafziy san’at sifatida berilgan. Muallif izohi: “Al-murabba’ aningtek bo‘lurkim, ham uzuni birla o‘qurlar, ham pinhoniy birla o‘qurlar. Misoli Unsuriy aytur:

Tekorur / ko‘ngulga / agarchi / jafongiz,

Ko‘ngulga / jafongiz / ko‘runmas / vafodur.

Agarchi / ko‘runmas, / valekin / raqibing,

Jafongiz / vafodur, / raqibing / balodur.

Misoli digar. Rashididdin Vatvot aytur:

Az furqati / on dilbar / man doim / bemoram,

On dilbar / k-az ishqash / bo dardam / pindoram.

Man doim / bo darda. m / bas munis / be yoram,

Bemoram / bedoram / be yoram / g‘am doram.

Xarakterlisi shundaki, Vatvotning bu go‘zal to‘rtligi mashhur bo‘lib, “Badoe’u-s-sanoe” risolasida ham murabba’ san’atiga xuddi shu she’r misol qilib keltirilgan.

⁸⁹ Hojiahdmedov A. Mumtoz badiiyat lug’ati. – Toshkent: Yangi asr avlod, 2008. – B. 59-60

Maskur san'at XIX asrda Ogahiy qo'llagan “*musoviyat tarafayn*” ga ham juda o‘xshash.

Risolalardagi *lug‘z* san’ati haqida. *Lug‘z* so‘zi arabchada “yopiq narsa, yopiq nimarsa” ma’nosini anglatadi. “*Lug‘z* mavzun kalom bo‘lub, bir nimaning ahvol-u sifatin zikr etmak bila aning zotig‘a dalolat qilur va shart uldurkim ul ahvol-u sifatning yig‘indisi aning zotig‘a asos bo‘lg‘ay, garchi alar o‘zga nimalarning zotinda dag‘i topilsa ham”⁹⁰.

Lug‘z keyingi davr manbalarida badiiy san’at emas, balki alohida she’riy janr sifatida talqin qilinadi. Hatto Navoiy *lug‘z*lari ham mustaqil janrdir. Biroq mumtoz poetikaga doir bir talay risolalarda *lug‘z* ma’naviy san’at sifatida talqin qilingan. Ba’zi zamонавији risolalarda ham shunday mulohazalar mavjud. Adabitotshunos I. Adizova o‘zining “Uvaysiy ijodida janrlar takomili” nomli ilmiy risolasida *lug‘zni* she’riy san’at sifatida baholaydi: “Har bir she’rni janr sifatida tasniflashda ma’lum belgilar inobatga olinadi. Ammo *lug‘zni* hajm, vazn, qofiya, radif nuqtayi nazaridan kuzatsak, xos xususiyatlar ko’zga tashlanmaydi. Demak, *lug‘zni* alohida janr deb qarash haqiqatga to‘g‘ri kelmaydi. Uni she’riy san’atlardan biri deb qarash to‘g‘riroqdir”⁹¹. Shayx Ahmad Taroziyining “Funun ul-balogs” risolasida ham shu ma’noda aytilgan. Muallif izohi: “ Bu aningtek bo‘lurkim, bir narsaning otin va haqiqatin yoshurub, mushabbah/un/ bih lafze birla savol qilurlar”. Taroziy o‘z *lug‘zidan* keltiradi:

“Nedur ul la’lki, paydo bo‘lur andin guhar? –

Goh paydo bo‘lur anda may-u gah shir-u shakar”⁹².

Lug‘z badiiy san’at sifatida turli she’r shakllarida kelishi mumkin. Jumladan, g‘azal, qit’a, ruboiy janrlari tarkibida kelishi mumkin. E’tiborlisi, *lug‘z* badiiy san’at sifatida qo’llanganda muallif tomonidan uning javobi aytilmaydi.

⁹⁰ Husayniy Atoulloh. Badoe'u-s-sanoe'. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1981. – B. 205

⁹¹ Adizova I. Uvaysiy ijodida janrlar takomili. – Toshkent: Muharrir, 2011. – B. 12

⁹² Shayx Ahmad ibn Xudoydod Taroziy. Funun ul-balogs. – Toshkent: Xazina, 1996. – B. 127

Lug‘z she’riy janr sifatida chiston ham deyiladi. Lug‘z va chiston xalq og‘zaki ijodidagi eng ommabop janr hisoblangan topishmoqqa juda yaqin turadi. Yuqorida Taroziy qalamiga mansub lug‘zning javobi labdir.

Xullas, lug‘z ham har ikki risolada she’riy san’at sifatida talqin qilingan. Biroq keyingi manbalarda, jumladan, mumtoz poetikaga taaluqli bugungi nazariy adabiyotlarda lug‘z mustaqil she’r turi tarzida berilgan.

Risolalardagi *al-radd v-al-aks* (“Funun ul-balogs‘a”) va *aks* (“Badoe’u-s-sanoe”⁹³) san’atlari haqida. Bu san’atlarning belgilari mumtoz poetikadagi *tard-u aksda* ko‘rinadi. Tard-u aks arabchada “teskari qilib takrorlash” ma’nosini anglatadi. Ya’ni she’rning birinchi misrasida keltirilgan ikki so‘z yoki so‘z birikmalarini keyingi misrada o‘rnini almashtirib qaytarishdan iborat bo‘lgan she’riy san’atdir. Bundagi takrorlanish ma’noga ham ta’sir etib, uni yangilaydi. Ammo Taroziy bu san’atni izohlaganda so‘z yoki so‘z birikmalari takrorini nazarda tutmaydi. Balki, she’rning toq misralarini ikki bo‘lakka ajratib, juft misralarda ularni teskari qilib takrorlashni nazarda tutadi. Muallif izohi: “Bu ul bo‘lurkim, avvalg‘i misra’ni so‘ngg‘i misra’da bo sukuna qilurlar:

Jon-u ko‘ngil marhami la’li labing yodidur,

La’li labing yodidur jon-u ko‘ngil marhami.

Misoli Nosir aytur:

Az labi jononi man zinda buvad joni man,

Zinda buvad joni man az labi jononi man.

In dili hayroni man oshiqi shaydoi tust,

Oshiqi shaydoi tust in dili hayroni man...”⁹³

⁹³ O’sha asar, 134-bet.

Shu tarzda takrorlanish she'r adog'iga qadar davom etadi. Bun kabi rad qilish baytlarni ham shaklan, ham ma'nan ko'rkamlashtiradi. Atoulloh Husayniy aksning bir necha nav'lari haqida ma'lumot beradi. "Tard lug'atta yurutmoq, quvlamoqtur va aks teskari qilmoqtur. Bu san'atta kalomni o'ziga xos bir tartibda yurutub, yana teskari qilg'anlari uchun anga tard-u aks deb nom beripturlar. Aks-u tabdil deb atashning vajhi zohirdur". Bunda misralararo takrorlar turlicha ko'rinish kasb etadi, "Funun ul-balogs'a"da esa yuqorida keltirilgan faqat bir nav' to'g'risida aytilgan.

Risolalardagi *jam'* san'atlari to'g'risida. Bu ma'naviy san'at hisoblanib, yorning turli sifatlarini bir o'rinda jam qilib, bir o'rinda ularni taqsimlashni, ikki narsani avval jam qilib, keyin ularni farqlashni yoxud shu ikki narsani bir asos birla yagona san'atga jam qilib ifodalashni anglatadi. Jam' she'riy san'ati turli nav'larga ega bo'lib, ularning har birini alohida mustaqil san'at tarzida talqin etish maqsadga muvofiqdir. "Funun ul-balogs'a" va "Badoe'u-s-sanoe" risolalarining har ikkasida ham bu san'at mavjud. Biroq uning navlariaro biroz farqlanishlar ko'zga tashlanadi. Dastlabki farq nomlanishida bo'lib, A. Husayniy umumiy "*Jam'*" deb nomlab, so'ng uning navlarini alohida qayta nomlaydi. Biroq bu holat "Funun ul-balogs'a"da sal boshqacharoq: Taroziy umumiy nom bermaydi, balki to'g'ridan to'g'ri navlar izohiga o'tib ketadi. Asarlardagi bu ikki xillikni quyidagicha jadvallashtirishga harakat qildik:

"Funun ul-balogs'a"dagи jam'ning nav'lari:	"Badoe'u-s-sanoe" dagи jam'ning nav'lari:
Al-jam'-ul-mufrad:	Tafriq
a) muzhar	Taqsim
b) muzhar	Jam'-u tafriq
At-ta'rif-ul-mufrad	Jam' ma'a-t-taqsim
At-taqsim-ul-mufrad	Jam' ma'a-tafriq va-t-taqsim
Al-jam' maat-tafriq	Jam' ma'a-t-taqsim ma'a-l-jam'

Al-jam'-ul-maat-taqsim	
Al-jam'maat-tafriq at-taqsim	

Ko‘rinadiki, “Funun ul-balogs‘a”da nav‘lar soni ko‘proq. Hatto undagi ayrim turlar “Badoe'u-s-sanoe” ning hech o‘rnida uchramaydi. Aynan shunday xususuyatli navlar haqida ma’lumot:

Al-jam'-ul-mufrad san’ati. Bu ham ma’naviy san’atlar sirasiga kirib, muallif uni shunday izohlaydi: “Bu aningtek bo‘lurkim, ikki narsani bir san’atga jam’ qilurlar.” Uning ikki turi haqida aytildi:

“Zulf erur husnunga oshiq men bikin,

Lojaram bir dam qarori yo‘q turur”⁹⁴.

Yuqoridagi bayt al-jam'-ul-mufradning birinchi ko‘rinishi bo‘lib, muzhar deb nomlanadi. Unda shoir ikki narsani (zulf va o‘zini) bir sifatga (beqarorlikka) jam’ qiladi.

“G‘uncha og‘zing‘a mushobehdur, vale

Men bikin doim giribon chokdur”⁹⁵.

Bu Al-jam'-ul-mufradning ikkinchi turi bo‘lib, u muzmar deb nomlanadi. Unda ikki narsa (g‘uncha va oshiqning o‘zi) bir san’atga jam’ qilinadi. Lekin ularning jam’i, ya’ni zamiri aytilmaydi. Shunga ko‘ra muzhar va muzmar bir-biridan farqlanadi. Jam’ning bu turi haqida A. Husayniy risolasida ma’lumot berilmaydi. “Funun ul-balogs‘a”dagi jam’ning ba’zi turlari an’anaviy mumtoz poetikadagi boshqa she’riy san’atlarga ham yaqin. Xusan, at-taqsim-ul-mufrad san’ati laff-u nashrga mohiyatan juda o‘xshash hisoblanadi. Hatto muallif ta’rifī ham shuni taqozo etadi: “Aningtek bo‘lurkim avvalg‘i misra’da har birini qismat qilib, bir qoida birla zikr qilurlar.

⁹⁴ O’sha asar, 140-bet.

⁹⁵ O’sha asar, 140-bet.

Misol:

Uzor-u la’li lab-u zulfung, ey mahi anvar,

Erur biri gul-u biri mul-u biri anbar.

Misoli Jaloliy aytur:

Erur qadding bila tishing, labing, ayo dilbar,

Biri sanubar-u biri dur-u biri shakkar”⁹⁶.

Yuqoridagi har ikkala bayt ham laff-u nashrga kop jihatdan misol bo‘la oladi.

Faqat san’atga aytilgan ta’rifda biroz nozik ma’no farqlanishi bor xolos.

Xullas, Shayx Taroziy va A.Husayniy talqinlaridagi badiiy san’atlar o‘rtasida yuqorida zikr etilgani kabi yana ko‘plab tutash nuqtalar, biroz farqli jihatlar mavud ekan. Ba’zi o‘rinlarda bahs-munozaraga sabab bo‘ladigan tomonlar ham ko‘zga tashlanadi. Biz bunday tomonlarni imkon qadar ko‘rib chiqishga, “Funun ul-balogs“a” va “Badoe‘u-s-sanoe” risolalaridagi badiiy san’atlarni qiyosiy metoddasi tahlil etishga va ularning o‘xhash va farqli tomonlarini baholi qudrat e’tibordan chetda qoldirmaslikka harakat qildik. Albatta, hech bir yumush, xususan, hech bir ilm ham kamchiliksiz bo‘lmagani singari bizning bu kichik chog‘ishtiruvimizda ham talay xato va kamchiliklar bo‘lishi mumkin. Va yana ayrim jihatlar ilmiy tadqiqotimizga jalb etilmagan bo‘lishi ham ehtimoldan xoli emas.

Ishning “Risolaning shu tipdagisi asarlar bilan muqoyasasi” deb nomlangan qismidan quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

1. Shayx Ahmad Taroziyning “Funun ul-balogs“a” risolasi o‘z davri adabiy muhiti ehtiyoji yanglig‘ yaratilgandir.
2. Asarning XV asrda yaratilgan shu yo‘nalishdagi risolalardan ustunlik tomonlari mavjud. Ular quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

⁹⁶ O’sha asar, 141-bet.

- 1) “Funun ul-balogs‘a” o‘z zamonasidagi nazariy manbalardan she’rshunoslikning barcha sohalarini qamrab olganligi bilan, avvalo. qimmatlidir;
 - 2) asar tili, uslubi va qurilishidagi ustunlik;
 - 3) badiiy san’atlarga keltirilgan misollarning ko‘p tilliligi;
 - 4) risolada boshqa manbalarda uchramaydigan sof turkona she’riy san’atlarning mavjudligi.
3. Taroziy risolasini A. Husayniy asari bilan qiyosiy o‘rganib, ulardagi ba’zi badiiy san’atlar munozarali ekanligi aniqlandi. Jumladan, tajrid, e’not, muvajjah-mujovaza, tajnis, jam’ san’atlari, murabba’ kabilar haqida shunday farqlanishlar aniqlandi.

2.2 Zamonaviy she'rshunosligimizda uchramaydigan badiiy san'atlar tasnifi.

Shayx Ahmad Taroziyning “Funun ul-balogs‘a” (“Balog‘at fanlari”) asari turkiy adabiyotshunoslikning eng dastlabki asaridir. Asar, avvalo, turkiy tilda yozilganligi bilan xarakterlidir. Ya’ni Taroziy turkiy tilda nazariy adabiyot yaratish an’anasini ilk bor boshlab berdi. Shu bois ilk tajribada ba’zi kamchiliklar, to‘ldirilishi lozim bo‘lgan ayrim o‘rinlar bo‘lishi tabiiy holdir. “Funun ul-balogs‘a” faqat badiiy san’atlar jihatidan emas, balki o‘zbek tilidagi aruz, qofiya va radif, she’r navlari jihatidan ham muhim manba sanaladi. Risolada zamonaviy adabiyotshunosligimizda uchramaydigan o‘rinlar talaygina bo‘lib, shulardan she’riy san’atlargagina taaluqlilarini ifodalashga harakat qildik. Ya’ni zamonaviy she'rshunosligimizda uchramaydigan badiiy san’atlar.

“Funun ul-balogs‘a”da ta’rifi keltirilgan 90 dan ortiq san’atlarning ba’zilari zamonaviy she'rshunoslik uchun tamomila uchramaydi, ba’zi turlari esa Atoulloh Husayniy talqinida ham keltiriladi. Ammo bugungi nazariy adabiyotshunoslikda uchramaydi. Ular quyidagilar:

1. Al-iltifot
2. Al-intiboh
3. Al-istifhom
4. Al-istidlol
5. Al-istidrok
6. Al-mutadorif
7. Al-maqlubot (Y. Is’hoqov asarida maqlubotning faqat mustaviy turi uchraydi)
8. Al-mutalavvin
9. Al-mutasalsal

10. Al-mutazalzil
11. Al-muhtamilu li-ziddayn
12. Al-muvajjah
13. Al-muqatta'
14. Al-muvassal
15. Al-mushajjar
16. Al-murabba'
17. Al-mujarrad
18. Al-muammo
19. Al-mug'olata
20. Al-lug'z
21. Al-raqto
22. Al-xayfo
23. Al-baroati istihlol
24. Radd ul-ajz-alos-sadr
25. Mushavvash
26. Al-radd ul-aks
27. Al-hashviyot
28. As-sehr-ul-hilol
29. As-siyoq-ul-e'dod
30. Al-jam'-ul-mufrad

31. At-ta’rif-ul-mufrad
32. At-taqsim-ul-mufrad
33. Al-jam’ maat-tafriq
34. Al-jam’-ul-maat-taqsim
35. Al-jam’ maat-tafriq at-taqsim
36. Al-husn-ut-talab
37. Al-husn-ul-maqta’

Shu xususiyatga ega bo‘lgan badiiy san’atlarni shartli ravishda jadvallashtirishga harakat qildik. Quyidagi jadvalda 37 san’at turi sanaladi. Ulardan 14 san’at faqat “Funun ul-balogs”da uchraydi, ya’ni ular sof turkona, 23 ta san’at har ikkala asarda bor. Bugungi adabiyotshunosligimizda uchramaydigan badiiy tasvir vositalaridir:

Yangi san’atlar nomlari:	“Funun ul-balogs”da uchraydiganlari:	“Badoe’u-s-sanoe”da uchraydiganlari:
1. Al-iltifot	Al-iltifot	Iltifot
2. Al-intiboh	Al-intiboh	-
3. Al-istifhom	Al-istifhom	-
4. Al-istidlol	Al-istidlol	-
5. Al-istidrok	Al-istidrok	-
6. Al-mutadorif	Al-mutadorif	-
7. Al-maqlubot	Al-maqlubot	Qalb

8. Al-mutalavvin	Al-mutalavvin	Talavvun
9. Al-mutasalsal	Al-mutasalsal	-
10. Al-mutazalzil	Al-mutazalzil	Mutazalzil
11. Al-muhtamilu li-ziddayn	Al-muhtamilu li-ziddayn	-
12. Al-muvajjah	Al-muvajjah	Mujovaza
13. Al-muqatta'	Al-muqatta'	Muqatta'
14. Al-muvassal	Al-muvassal	Muvassal
15. Al-mushajjar	Al-mushajjar	Mushajjar
16. Al-murabba'	Al-murabba'	Murabba'
17. Al-mujarrad	Al-mujarrad	-
18. Al-muammo	Al-muammo	Muammo
19. Al-mug'olata	Al-mug'olata	-
20. Al-lug'z	Al-lug'z	Lug'z
21. Al-raqto	Al-raqto	Raqto
22. Al-xayfo	Al-xayfo	Xayfo
23. Al-baroati istihlol	Al-baroati istihlol	Baroat-i istihlol
24. Radd ul-ajz-alos-sadr	Radd ul-ajz-alos-sadr	Raddu-l-'ajz mina-s-sadr
25. Mushavvash	Mushavvash	-
26. Al-radd ul-aks	Al-radd ul-aks	Aks

27. Al-hashviyot	Al-hashviyot	Tavshi'
28. As-sehr-ul-hilol	As-sehr-ul-hilol	Sehri-I halol
29. As-siyoq-ul-e'dod	As-siyoq-ul-e'dod	-
30. Al-jam'-ul-mufrad	Al-jam'-ul-mufrad	-
31. At-ta'rif-ul-mufrad	At-ta'rif-ul-mufrad	-
32. At-taqsim-ul-mufrad	At-taqsim-ul-mufrad	-
33. Al-jam' maat-tafriq	Al-jam' maat-tafriq	Jam'-u tafriq
34. Al-jam'-ul-maat-taqsim	Al-jam'-ul-maat-taqsim	Jam' ma'a-t-taqsim
35. Al-jam' maat-tafriq at-taqsim	Al-jam' maat-tafriq at-taqsim	Jam' ma'a-tafriq va-t-taqsim
36. Al-husn-ut-talab	Al-husn-ut-talab	Husn-i matlab
37. Al-husn-ul-maqta'	Al-husn-ul-maqta'	Husn-i maqta'

Biz bu she'riy san'atlarning bugungi adabiyotshunoslikda uchramasligini A. Hojiahmedovning "Mumtoz badiiyat lug'ati" va Y. Is'hoqovning "So'z san'ati so'zligi" kitoblaridagi badiiy san'atlari bilan chog'ishtirish asnosida aniqladik. Adabiyotlarni o'rganish chog'ida 37 san'atning hech biriga duch kelinmadni. Biroq ayrimlarining elementlari, ba'zi xususiyatlari "Mumtoz badiiyat lug'ati" va "So'z san'ati so'zligi"dagi boshqa san'atlari tarkibida uchrashi ham aniqlandi. Jumladan, jam' san'atlari va aynan at-taqsim-ul-mufrad turi laff va nashrga juda yaqin hisoblanadi. Al-mujarrad esa tajrid tarzida aytildi, lekin mazmunan butunlay o'zgacha.

Quyida shu san'atlarning eng qiziqarlilari va sof turkonalari to‘g‘risida ma’lumot berishga harakat qilamiz:

AL-ISTIFHOM san’ati. Istihfom so‘zi arabchada “fahm etish” ma’nosini anglatadi. Ya’ni biror jumla, fikrning botiniy ma’nosini nozik fahmlab anglab yetish ma’nosida. Muallif izohi: “Bu san’at aningtek bo‘lurkim, she’re ayturlarkim, ikki ma’nog‘a muhtamal bo‘lg‘ay: zohiriylar bir ma’nog‘a va zamiriy bir ma’nog‘a. Faammo shoirning g‘arazi zamirinda ma’no turur”. Keltirilgan ta’rifdan istihfom bir qarashda iyhom san’atiga o‘xshash. Biroq farqli tomoni iyhomda har ikkala ma’no ham muhim hisoblanib, ular teng mavqeda bo‘ladi. Istihfomda esa faqat zamiriy ma’no ahamiyatli bo‘lib, o‘quvchi uni nozik fahmlashi darkor. Misol yana Taroziy ijodidan keltiriladi:

“Raqibing haybatidin qo‘rqub, ey jon,
Ketorgaymen ko‘nguldin mehringizni”⁹⁷.

Baytning zohiriylar ma’nosidan yorning raqibi kuchliligidan oshiq yordan, ko‘nglidagi ishqidan voz kechishi anglashiladi. Zamirda esa oshiq tilidan raqibning haybatidan qo‘rqmaslik, undan omon qolish, uni mag‘lub etish uchun ham ma’shuqa mehrini ko‘ngilga joylash ma’nosidagi izhor ayttilmoqda. Navbatdagi misolda ham shunga yaqin ma’no ifodalangan. Misoli digar. Hoji aytur:

“Agar yuz ming jafo tegsa manga ul qoshlari yodin,
Mag‘azalloh, ketorgaymen bu ko‘nglumdan aning yodin”⁹⁸.

Istifhom san’ati ham bugungi nazariy manbalarda va hatto “Badoe'u-s-sanoe”da ham uchramaydi. Taroziy keltirgan misollar ham asosan turkiyda. Bu esa al-istifhomning sof turkona badiiy san’at ekanligidan darak beradi.

AL-ISTIDROK san’ati. Istidrok so‘zi “idrok etish” ma’nosida bo‘lib, bu san’at ham al-istifhomga o‘xshash. Muallif izohi: “Bu san’at aningtek bo‘lurkim, so‘zni

⁹⁷ O’sha asar, 107-bet.

⁹⁸ O’sha asar, 108-bet.

andog‘ lafz birla og‘oz qilurlarkim, mustame’g‘a hajv gumoni bo‘lur. Istidrok qilsalar, madh hosil bo‘lur. Misol:

Qiloyin seni ser yaxshi mahalda,

Ijozat bersang el ichina tahsin”⁹⁹.

Ta’kidlanganidek istidrokda ikki xil ma’no anglashiladi. O‘quvchi anglagan zohiriyl ma’no asosiysi hisoblanmay, muallif nazaridagi ma’no yetakchidir. Bir qarashda, baytda kinoya, mazah ifodalangandek ko‘rinsa ham, shoir, aslida, bu baytni kimgadir madh uchun bitgan bo‘ladi. “Misoli digar. Rashid Vatvot aytur.

Asari mir bixohamki, bimonad ba jahon,

Mir xohamki, bemonad ba jahon dar asare”¹⁰⁰.

Al-istidrok san’ati bugungi nazariy manbalarda uchramaydi. Atoulloh Husayniyning “Badoe’u-s-sanoe” risolasida ham bu san’at haqida aytilmagan.

AL-JAM’ MAAT-TAFRIQ AT-TAQSIM san’ati. Muallif izohi: “Bu aningtek bo‘lurkim, ul ikki narsani jam’ qilurlar va yana farq qilurlar va yana qismat qilur. Bu uch holning jam’i bas mushkil turur, netokkim o‘zini mahbub zulfi birla oshufta va shaydoliqta jam’ qildi va farq qildikim, zulf gulda, ag‘yor o‘zini tikonda va qismat qildikim, anga no‘shtur, munga pesh. Misol:

Sari zulfung jamolingg‘a meningtek,

Erur oshufta-u shaydo-vu dilresh.

Vale ul gulda ag‘nar, men tikonda,

Anga doim erur no‘sh-u manga nesh”¹⁰¹.

⁹⁹ O’sha asar, 108-bet.

¹⁰⁰ O’sha asar, 109-bet.

¹⁰¹ O’sha asar, 142-bet.

Bu san'at ayrim xususiyatlari bilan tashbehga ham o'xshab ketadi. Yuqoridagi baytda oshiq o'zini yor zulfiga qiyoslayapti. Biroq 3-4 misralardagi mazmun tashbehni biroz rad etadi. Birinchi misradagi qiyoslov endi farqlanadi: yor yuzi misoli gul va zulf shu gulga ag'anaydi. Biroq oshiq tikonda – hijronda. Zulf yor lablaridan bahramand bo'lgani holda oshiq faqat nish – firoq azobidan tatiydi. Ko'rinadiki, al-jam' maat-tafriq at-taqsim san'ati ham mohiyatan, ham shaklan go'zal badiiy tasvir vositasidir.

AL-MUG'OLATA san'ati. Mug'olata so'zining aynan lug'aviy ma'nosi g'alati so'ziga to'g'ri keladi. Muallif ta'rifi va keltirilgan misollarning mohiyati ham shu so'zni taqozo etadi. Taroziy izohi: "Bu san'at aningtek bo'lurkim, bir narsani vasf qilg'ondin so'ngra bir lafze keltururlarkim, mustame'g'a tasavvur bo'lurkim, ul vasfdin magar yondi, vale tahqiq qilsa, ma'lum bo'lurkim, mug'olata ko'rguzubtur – hamul vasf to mustaqimdur:

Misoli uchun Ahmad Taroziy o'z baytidan keltiradi:

Gar labi la'ling shakardur, neshi achchig'dur so'zung,
Va-r soching yaldo tuni bo'lsa, nag'u tundur uzun"¹⁰².

Birinchi misrada yor labi shakarga qiyoslanib, keyin so'zining shunga mos emasligidan yozg'iradi - neshi achchig'dur so'zung. Ikkinci misrada ham xuddi shunday ifoda: yor sochi yaldo tunidek qop-qora – chiroyli, biroq qorong'u tundek tiyra hamdir. Bu san'atni tashbehning murakkabroq navi deb atasa bo'ladi. Mumtoz she'riyatimizda bu kabi tasvir vositalari qo'llangan baytlar talaygina topilishi tayin. Ammo al-mug'olata degan nom bugungi nazariy adabiyot manbalarida qayd etilmaydi. Hatto A. Husayniy risolasida ham u haqda ma'lumot yo'q.

"Funun ul-balogs'a"da zamonaviy adabiyotshunoslikda uchramaydigan bir qancha lafziy san'atlar ham mavjud:

¹⁰² O'sha asar, 126-bet.

AL-MUVASSAL san’ati. Muvassal so‘zi arabcha tavsil so‘zidan olingan bo‘lib, uning lug‘aviy ma‘nosi “vasl” hisoblanadi. San’atning mazmuni ham shu ma’noga yaqindir. Muvassal go‘zal lafziy san’atdir. Muallif izohi: “Bu san’at aningtek bo‘lurkim, aningtek harflarni tarkib qilurlarkim, tamomin payvasta bitisa bo‘lg‘ay, netokkim bu baytni bitisa, mundog‘ bo‘lurkim:

Ishqing g‘ami meni xasta qilsa,

La’ling mayi mast qilmag‘aymu?”¹⁰³

Yuqoridagi bayt arab yozuvida bitilsa, barcha harflar o‘zaro vasl ko‘rishadi, ya’ni ularning hammasi ikki tomonlama qo‘l beradigan arabiylardan tashkil topgan. Al-muvassal “Badoe’u-s-sanoe”da muvassal tarzida uchraydi. Biroq bu risolada muvassalning yana boshqacha turli nav’lari haqida ham aytilgan.

AL-MUQATTA’ san’ati. Muqatta’ arabcha taqtisi so‘zidan olingan bo‘lib, “bo‘lak-bo‘lak qilmoq” deganidir. Shu lug‘aviy ma‘no san’at mohiyatiga to‘la mos keladi. Muqatta’ ham ajoyib lafziy san’at hisoblanib, u go‘yo al-muvassalning teskari ko‘rinishidir. Muallif izohi: “Bu aningtek bo‘lurkim, she’re ayturlarkim, hech harfi kitobatta bir-biriga tutashmas:

Dardi davri zard, ey dil, zor.

Misoli digar:

Zor-u zardam zi dardi on dildor”¹⁰⁴.

Yuqoridagi misralardagi harflar arab alifbosida bir tomonlama qo‘l beradigan shakllar sanalib, bundagi so‘zlarning hech biri tutashmaydi, alohida ajratilib yoziladi. “Badoe’u-s-sanoe”da u muqatta’ tarzida uchrab, uning ikki navi to‘g‘risida aytiladi.

¹⁰³ O’sha asar, 120-bet.

¹⁰⁴ O’sha asar, 121-bet.

Al-muvassal va al-muqatta' san'atlari ham bugun nazariy manbalarda uchramaydi. Ularning asosiy xususiyati faqat arab harflari doirasidagina ifodalash mumkinligida bo'lib, shu bois ham zamonaviy she'rshunoslikda har ikkisi haqida ma'lumot yo'q.

Bu faslda keltirilgan ma'lumotlardan quyidagicha ilmiy xulosalarga kelish mumkin:

1. "Funun ul-balogs'a" risolasida shu kabi yuqorida nomlari zikr etilgan 42 ta boshqa manbalarda uchramaydigan badiiy san'at haqida ma'lumot beriladi.
2. Ulardan al-intiboh, al-iltifot, a-istifhom, al-istidlol, al-istidrok kabilari sof turkona badiiy san'atlar bo'lib, ular haqida zamondosh risolalarda ham ma'lumot deyarli uchramaydi. Bu san'atlar risolada jami 14 tani tashkil etadi.
3. Taroziy risolasida aniqlangan yangi san'atlar mumtoz poetikamiz uchun tamomila yangilik yoki kashfiyat hisoblanmaydi. Buning boisini ikki xil asos bilan isbotlash mumkin: birinchidan, yuqoridagi san'atlar haqida biz ko'rgan nazariy manbalarda ma'lumot bo'limgani holda qaysidir ilmiy asarlarda ular to'g'risida aytilgan bo'lishi ehtimoldan xoli emas; ikkinchidan, bu san'atlar haqida ilmiy adabiyotlarda ma'lumot berilmagan bo'lishiga qaramay, turkiy she'riyatimiz tarixida ularga misollar son-sanoqsiz topilishi ham, albatta, mumkin.
4. "Funun ul-balogs'a"da uchraydigan bu kabi san'atlar haqida zamonaviy risolalarda va ilmiy asarlarda kelgusida ma'lumot kiritilishi o'zbek adabiyotshunosligimiz uchun muhim muammolarni yechish omili bo'lib xizmat qilishi mumkin.

III. XULOSA.

Shayx Ahmad Taroziyning “Funun ul-balogs” risolasi turkiy adabiyotshunoslikka oid ilk asar. Shu yo‘nalishdagi dastlabki tajribadir. Asar yaratilganiga besh asrdan ko‘proq vaqt o‘tgan bo‘lsa-da, hali chuqur o‘raganilgan emas. Ilm ahli oldida “Funun ul-balogs”ning o‘rganilishi lozim bo‘lgan qirralari bisyor. Biz bu ishimizda risolaning ilmi bade’ga bag‘ishlangan uchinchi tarkibiy qismini o‘raganishga, undagi badiiy san’atlarni qiyosiy metodda tadqiq etishga harakat qildik. Qiyoslash uchun Taroziyga zamondosh (A. Husayniyning “Badoe’u-s-sanoe”) va mumtoz poetikaga oid bugungi nazariy manbalardan (A. Hojiahmedovning “Mumtoz badiiyat lug‘ati” va Y. Is’hoqovning “So‘z san’ati so‘zligi”) foydalandik. Shu qiyoslashlar natijasida yangicha ilmiy xulosalar, zamonaviy she’rshunosligimizda uchramaydigan holatlar ham aniqlandi. Albatta, bu kichik ilmiy ishimizda ayrim nuqson va xatoliklar ham bo’lishi mumkin. Buning uchun uzr so‘raymiz. Biz yuqorida keltirilgan kuzatishlarimizni umumlashtirib, quyidagi xulosalarga keldik:

1. Shayx Ahmad Taroziyning “Funun ul-balogs” asari XV asr turkiy mumtoz poetikasining nodir namunasidir.
2. Shayx Ahmad Taroziyning “Funun ul-balogs” asari o‘z zamonasi adabiy jarayonining ehtiyoji yanglig‘ yaratilgandir. XV asrda turkiy tilda qalam tebratuvchilarining soni oshib borayotgan bir paytda, bu tilda she’r ilmi haqida mukammal risola yaratish ham mushkil, ham sharaflı vazifa edi. Shu ma’noda Shayx Taroziy ikki ma’suliyatli ishni amalga oshirdi:
 - 1) turkiy tilda she’r ilmiga bag‘ishlangan ilmiy risola yozish;
 - 2) mumtoz poetikaning barcha masalalarini o‘zida qamray oladigan mukammal asar yaratish. Taroziy o‘z davri adabiy muhitidagi kamchiliklarni anglagan holatda shunday deydi: «...Ammo ko‘p kishi bu tariqada necha ta’lif qilibturlar va lekin hech kimarsa nazmning tamom fununin berarda jam’ qilmaytur. Va yana bu sababdin rag‘bat havasi g‘olib bo‘lib, havas dilbarini ko‘ngul pardasindan bu tariqa yuz

ko‘rguzdikim, nusxa qalamg‘a keltursakim, nasr va nazmning jam’ qavoyid va aqsomig‘a mushtamil bo‘lsa, to har kim balog‘atqa moyil va fasohatqa qobil erur, foyda olsa”¹⁰⁵.

3. “Funun ul-balogs‘a”ning she’riy san’atlarga bag‘ishlangan “Al-fann-us-solis fis-sanoe’-ish-she’r” qismida 90 dan ortiq tasvir vositalari alifbo tartibida izohlanadi. Ahmad Taroziy badiiy san’atlarni lafziy, ma’naviy turlarga ajratmaydi. Biz bu 90 dan ortiq san’at turini shartli ravishda lafziy va ma’naviy guruhlarga ajratishga harakat qildik. Agar ba’zi she’riy san’atlarning ichki turlarini hisobga olmasak, risolada 64 mustaqil badiiy san’at turi borligi ayon bo‘ldi. Shundan 25 tasi lafziy va 39 tasi ma’naviy san’atlardir.
4. Lafziy san’atlardan oltitasi ichki turlarga ega: at-tajnisot 7 (nav’), al-maqlubot (nav’), radd-ul-ajz alas sadr (6 nav’), al-hashviyot (3 nav’), al-ishjo (3 nav’), as-sehr-ul-hilol (2 nav’). Ma’naviy san’atlardan esa to‘rt san’at ichki turlarga ega: at-tashbehot (7 nav’), al-irsolul-masal (2 nav’), al-iltifot (2 nav’), al-jam’-ul-mufrad (2 nav’) san’atlari. Agar biz bu san’atlarning har bir turini hisobga oladigan bo‘lsak, lafziy san’atlar soni 40 tani, ma’naviy san’atlar hisobi esa 48 tani tashkil etadi.
5. Shayx Taroziy risolasini o‘rganish chog‘ida asarning XV asrda yaratilgan shu yo‘nalishdagi risolalardan ustunlik tomonlari mavjudligi aniqlandi. Ular quyidagilarda namoyon bo‘ladi:
 - “Funun ul-balogs‘a” o‘z zamonasidagi nazariy manbalardan she’rshunoslikning barcha sohalarini qamrab olganligi bilan, avvalo, qimmatlidir;
 - asar tili, uslubi va qurilishidagi ustunlik;
 - badiiy san’atlarni dalillash maqsadida keltirilgan misollarning ko‘p tilliligi;
 - risolada boshqa manbalarda uchramaydigan sof turkona she’riy san’atlarning mavjudligi.

¹⁰⁵ Shayx Ahmad ibn Xudoydod Taroziy. Funun ul-balogs‘a. – Toshkent: Xazina, 1996. – B. 31

6. Ishimiz davomida “Funun ul-balogs‘a”dagi she’riy san’atlarni Atoulloh Husayniyning “Badoe’u-s-sanoe” asaridagi badiiy san’atlar bilan qiyoslashga harakat qildik. Bunda juda ko‘plab uyg‘un va farqli xususiyatlar borligi ma’lum bo‘ldi. Bunday xususiyatlar asarlarning tili, uslubi, muallif izohlari, she’riy san’atlarga berilgan misollarning tili va ijodkorlari, san’atlar soni, nomi, mohiyati kabilarda ko‘rinadi.
7. Shuningdek, “Funun ul-balogs‘a”dagi ilmi bade’ni mumtoz poetikaga oid zamonaviy manbalar bilan ham qiyoslashga urindik. Bunda adabiyotshunos olimlar A. Hojiahmedov va Y. Is’hoqovlarning badiiy san’atlarga bag‘ishlangan kitoblari asos qilib olindi.
8. Taroziy risolasi A. Husayniyning forsiy manbasi bilan qiyoslaganda, unda bir necha turkona badiiy san’atlar mavjud ekanligi ayon bo‘ldi. Ular quyidagilar al-intiboh, al-iltifot, al-istifhom, al-istidlol, al-istidrok, al-mutadorif, al-mahtamilu li-ziddayn, al-mug‘olata, al-mashavvash, al-mujarrad, as-siyoq-ul-e’dod, al-jam’-ul-mufrad, at-ta’rif-ul-mufrad, at-taqsim-ul-mufrad. Bu san’atlarning barchasini sof turkiy deb atash, albatta, shartli.
9. “Funun ul-balogs‘a”da bugungi mumtoz poetikaga doir nazariy manbalarda deyarli uchramaydigan 37 she’riy san’at turi borligi aniqlandi. Biz bu tasvir vositalarini, shartli ravishda, Zamonaviy she’rshunoslikda uchramaydigan badiiy san’atlar deb nomladik.
10. Asardagi qiyoslashlar asosida aniqlangan o‘ziga xosliklar, ayniqsa, yangi badiiy san’atlar haqidagi fikrlar, ilmiy xulosalar, albatta, tugal va so‘nggi hukmlar emas. Chunki ilmi bade’ga bag‘ishlangan risolalar adabiyot tarixida son-sanoqsiz. Ularda bu san’atlar, allaqachon izohlangan bo‘lishi ehtimoldan xoli emas. Bundan tashqari, mumtoz she’riyatimiz cheksiz ummon bo‘lib, shu tasvir vositalari qo‘llangan bayt-u misralar ham ko‘plab topilishi mumkin.
11. “Funun ul-balogs‘a” ilmiy nuqtayi nazardan deyarli o‘rganilmagan bo‘lib, biz uning ilmi bade’ qisminigina tadqiq etishga harakat qildik xolos.

Risola hali “ochilmagan qo‘riq” misolidir. Shu boisdan, adabiyotshunosligimizda turgan endigi vazifa asarni ilmiy jihatdan to‘la va tugal o‘rganish, undagi turkiy mumtoz poetikaga taalluqli yangi qirralarni ochishdan iboratdir.

V. FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

I. Siyosiy adabiyotlar:

1. Каримов И. А. Юксак маънавият – енгилмас куч. Тошкент: Маънавият, 2008.
2. Каримов И. А. Ўзбекистон мустақилликка эришиш остонасида. Тошкент: Ўзбекистон, 2011.

II. Matn va manbalar:

3. Болтабоев X. Шарқ мумтоз поетикаси. Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2008. – 426 б.
4. Навоий А. Хайрат ул-аброр. Тошкент: Faafur Gulom, 2006.
5. Шайх Аҳмад ибн Худойдод Тарозий. Фунун ул-балоға. Тошкент: Хазина, 1996. – 212 б.

III. Ilmiy-nazariy adabiyotlar:

6. Адизова И. Увайсий ижодида жанрлар такомили. Тошкент: Мұхаррир, 2011. – 52 б.
7. Devin DeWEESE, The Predecessors of Nava'i in the “Funun al-balaghah” of shaykh Ahmad b. Khudaydad Tarazi: a neglected source on Central Asian literary culture from the fifteenth century” // Journal of Turkish studies: edited by Sinasi Tekin, 2005, volume 29. P.
8. Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. – Тошкент: Зарқалам, 2006. – 128 б.
9. Йўлдошбеков Ж. “Фунун ул-балоға” асарида қофия масалалари // Изланиш самаралари: Ўзбекистон ёш тилшунослари ва адабиётшуносарининг анъанавий республика илмий анжумани материаллари. Т: Фан, 2012.
10. Mamajonov S, Sariyev Sh. O‘zbek adabiyoti. – Toshkent, 2007. – 290 b.

11. Мумтоз адабиёт манбалари луғати. Тузувчи: Раҳмонов Тошкент: Мумтоз сўз, 2009. – 130 б.
12. Ражабова Б. Тамсил санъати. Тошкент: Фан, 2002. – 52 б.
13. Султон И. Адабиёт назарияси. II жилдлик. Тошкент: Фан, 1978.
14. Султон И. Адабиёт назарияси. Тошкент: Ўқитувчи, 1980.
15. Умурев X. Адабиётшунослик назарияси. Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси, 2004. – 274 б.
16. O‘zbek tilining imlo lug‘ati. Tuzuvchilar: Rahmatullayev Sh, Hojiyev A. Toshkent: O‘qituvchi, 2003. – 240 b.
17. Куронов Д ва бошқалар. Адабиётшунослик луғати. Тошкент: Академнашр, 2010. – 226 б.
18. Ҳайитметов А. Адабий меросимиз уфқлари. Тошкент: Ўқитувчи, 1997. – 264 б.
19. Ҳайитметов А. Тарозий қомуси // Фан ва турмуш. 1994. № 1.
20. Ҳайитметов А. Шайх Аҳмад Тарозий: “Фунун ул-балоға” // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. 1994.
21. Ҳожиаҳмедов А. Мумтоз бадиият луғати. Тошкент: Янги аср авлоди, 2008. – 194 б.
22. Ҳожиаҳмедов А. Шеър санъатларини биласизми? Тошкент: Шарқ, 2001. – 96 б.
23. Ҳусайн А. Бадоеву-с-саноеъ. Тошкент: Гафур Гулом, 1981. – 400 б

VI. ILOVA.

“Funun ul-balogs‘a”dagi badiiy san’at maqomida bo‘lman, biroq ijod ahli oldida ma’lum va mashhur bo‘lgan maxsus shakllarning “Badoe’u-s-sanoe” bilan qiyosi:

1-ilova.

“Funun ul-balogs‘a”da:	“Badoe’u-s-sanoe”da:
1. Badeha	1. Tashbib
2. Nazar	2. Nasib
3. Solis	3. G‘azal
4. G‘azal	4. Musarra’
5. Sahli mumtane’	5. Muzdavaj
6. Nomutanohiy	6. Muqaffo
	7. Mujamma’
	8. Baytu-l-qasida
	9. Matbu’
	10. Mutakallaf
	11. Xasiy
	12. Jazolat
	13. Salosat
	14. Irtihol
	15. Sahl-i-mumtani’

Shayx Taroziy va Atoulloh Husayniy risolalaridagi tajnis san'atlarining qiyosiy tadqiqi:

2-ilova.

“Funun ul-balogs‘a” da tajnis turlari:	“Badoe'u-s-sanoe”da tajnis turlari:
1. Tajnisi tom	Tajnis-i tom (tajnis-i tasrih)
2. Al-tajnisuz-zoyid	Tajnis-i noqis (tajnis-i muharraf)
3. Al-tajnis-un-noqis	Tajnis-i muzayyal (tajnis-i zoyil)
4. Al-tajnis-ul-murakkab	Tajnis-i muzori'(tajnis-i mutarraf)
5. Al-tajnis-ul-mukarrar	Tajnis-i lohiq
6. Al-tajnis-ul-mutarraf	Tajnis-i aks
7. Al-tajnis-ul-xat	Tajnis-i murakkab
	Tajnis-i xattiy
	Tajnis-i mushavash

Risolalardagi jam' san'atlarining qiyosiy jadvali:

3-ilova.

“Funun ul-balogs‘a”dagi jam’ning nav’lari:	“Badoe'u-s-sanoe””dagi jam’ning nav’lari:
Al-jam’-ul-mufrad:	Tafriq
a) muzhar	Taqsim
b) muzhar	Jam’-u tafriq
At-ta’rif-ul-mufrad	Jam’ ma’a-t-taqsim
At-taqsim-ul-mufrad	Jam’ ma’a-t-tafriq va-t-taqsim
Al-jam’ maat-tafriq	Jam’ ma’a-t-taqsim ma’a-l-jam’
Al-jam’-ul-maat-taqsim	
Al-jam’maat-tafriq at-taqsim	

“Funun ul-balogs‘a” asaridagi zamonaviy she’rshunoslikda uchramaydigan badiiy san’atlarning nomi va ularning “Badoe’u-s-sanoe””dagi she’riy san’atlar bilan munosabati:

San’atlar nomlari:	“Funun ul-balogs‘a”da uchraydiganlari:	“Badoe’u-s-sanoe”da uchraydiganlari:
1. Al-iltifot	Al-iltifot	Iltifot
2. Al-intiboh	Al-intiboh	-
3. Al-istifhom	Al-istifhom	-
4. Al-istidlol	Al-istidlol	-
5. Al-istidrok	Al-istidrok	-
6. Al-mutadorif	Al-mutadorif	-
7. Al-maqlobot	Al-maqlobot	Qalb
8. Al-mutalavvin	Al-mutalavvin	Talavvun
9. Al-mutasalsal	Al-mutasalsal	-
10. Al-mutazalzil	Al-mutazalzil	Mutazalzil
11. Al-muhtamilu li-ziddayn	Al-muhtamilu li-ziddayn	-
12. Al-muvajjah	Al-muvajjah	Mujovaza
13. Al-muqatta’	Al-muqatta’	Muqatta’
14. Al-muvassal	Al-muvassal	Muvassal
15. Al-mushajjar	Al-mushajjar	Mushajjar

16. Al-murabba'	Al-murabba'	Murabba'
17. Al-mujarrad	Al-mujarrad	-
18. Al-muammo	Al-muammo	Muammo
19. Al-mug'olata	Al-mug'olata	-
20. Al-lug'z	Al-lug'z	Lug'z
21. Al-raqto	Al-raqto	Raqto
22. Al-xayfo	Al-xayfo	Xayfo
23. Al-baroati istihlol	Al-baroati istihlol	Baroat-i istihlol
24. Radd ul-ajz-alos-sadr	Radd ul-ajz-alos-sadr	Raddu-l-'ajz mina-s-sadr
25. Mushavvash	Mushavvash	-
26. Al-radd ul-aks	Al-radd ul-aks	Aks
27. Al-hashviyot	Al-hashviyot	Tavshi'
28. As-sehr-ul-hilol	As-sehr-ul-hilol	Sehri-I halol
29. As-siyoq-ul-e'dod	As-siyoq-ul-e'dod	-
30. Al-jam'-ul-mufrad	Al-jam'-ul-mufrad	-
31. At-ta'rif-ul-mufrad	At-ta'rif-ul-mufrad	-
32. At-taqsim-ul-mufrad	At-taqsim-ul-mufrad	-
33. Al-jam' maat-tafriq	Al-jam' maat-tafriq	Jam'-u tafriq
34. Al-jam'-ul-maat-	Al-jam'-ul-maat-taqsim	Jam' ma'a-t-taqsim

taqsim		
35. Al-jam' maat-tafriq at-taqsim	Al-jam' maat-tafriq at- taqsim	Jam' ma'a-tafriq va-t- taqsim
36. Al-husn-ut-talab	Al-husn-ut-talab	Husn-i matlab
37. Al-husn-ul-maqta'	Al-husn-ul-maqta'	Husn-i maqta'